



O'ZBEKISTON XALQIGA BAYRAM TABRIGI



Qadri vatandoshlar!

Siz, azizlarni, ko'pmillatli butun xalqimizni **8-dekabr — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni** bilan chin qalbidan samimiy murokkab etaman.

Konstitutsiya milliy davlatchiligimiz, suverenitetimiz, shu kunga qadar erishgan barcha yutuq va marralarimiz, demokratik huquqiy davlat barpo etish yo'lidagi sa'y-harakatlarimizning mustahkam poydevori hisoblanadi. Asosiy Qonunimizning jonajon O'zbekistonimiz taraqqiyotidagi beqiyos ahamiyatini yuksak qadrlaymiz.

Albatta, bu yilgi bayram ijtimoiy-siyosiy hayotimizda, mamlakatimiz rivojida alohida ma'no-mazmunga ega. Bu, avvalo, shu yil **30-aprelda** milliy tariximizda birinchi marta umumxalq referendumini asosida Konstitutsiyamiz yangi tahrirda qabul qilindi bilan bog'liq, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Hech shubhasiz, tom ma'noda xalqchil qomus bo'lgan **Asosiy qonunimiz** Yangi O'zbekistonni barpo etishga qaratilgan keng ko'lami islohotlarimiz ortiga qaytmasligining mustahkam huquqiy kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda **O'zbekistonning besh ustuni, ya'ni suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat** ekani qat'iy belgilab qo'yildi, uning mazmuni tubdan takomillashtirilib, yangi bob va moddalar bilan boyitildi.

Biz o'z oldimizga qo'ygan ezgu maqsadlarga yetishda Asosiy qonunimizda muhrlangan barcha qoida va tamoyillarni amalga oshirmoqdamiz. Jamiyatimizda Konstitutsiya va qonun ustunligini yangicha konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitga mos holda yo'lga qo'yishning ahamiyatini chuqur anglagan

holda, bu borada tizimli ishlarni boshladik. Xususan, Asosiy qonunimizdan kelib chiqib, amaldagi qonunlarimizni yangi konstitutsiyaviy normalar bilan uyg'unlashtirish yuzasidan jadal ishlar olib borilmoqda.

Bu haqda so'z yuritganda, qisqa muddatda **30 dan ziyod** qonun va qonunosti hujjatlari yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiqlashtirilganini ta'kidlash lozim.

Konstitutsiya va qonun ustunligi tamoyili — bu barqaror taraqqiyotning asosiy mezoni. So'nggi yillarda barcha islohotlarimizni ayni shu tamoyil asosida amalga oshirdik.

Yurtimizda yalpi ichki mahsulot hajmi oxirgi 6 yilda **1,5-martadan** ortiq, tadbirkorlar soni **2 barobar** va sanoatdagi o'sish **40 foizdan** ziyod oshgani buni yaqqol tasdiqlaydi.

Shuningdek, joriy yilda ijtimoiy sohaga ajratilgan mablag'lar **134 trillion so'mni**

tashkil etib, **2016-yilga** nisbatan **5,6 barobar** ko'paydi.

Keng ko'lami va tizimli islohotlarimiz natijalari xalqaro maydonda ham keng e'tirof etilmoqda. Jumladan, O'zbekiston **Korrupsiyaga murosasiz munosabat bo'yicha xalqaro indeksda 32 pog'onaga, Matbuot erkinligi indeksida 28 pog'onaga, Huququstuvorligi indeksida 13 pog'onaga** ko'tarildi.

Aziz do'stlar!

Biz inson qadr-qimmatini va manfaatlarini ta'minlash bo'yicha boshlagan islohotlarimizni yangi konstitutsiyaviy makonda yanada qat'iy davom ettiramiz. Xalqimizning xohish-irodasiga binoan **Asosiy qonunimizda o'z aksini topgan tamoyillarni** to'liq ro'yobga chiqarishimiz va **hayotimizning ajralmas qismiga aylantirishimiz** lozim.

Shu munosabat bilan oldimizda turgan eng muhim ustuvor vazifalarni qayd etmoqchiman.

Birinchidan, Konstitutsiyamizda xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir, deyilgan. Ana shu qoidadan kelib chiqib, fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan islohotlarimiz izchil davom ettiriladi.

Ikkinchidan, Konstitutsiyani jamiyat hayotining barcha jabhalarida to'g'ridan-to'g'ri va bevosita qo'llash amaliyoti o'tishimiz zarur. Shundaygina xalqimiz Asosiy qonunimizning hayotbaxsh kuchi va ta'sirini teran his etadi.

Bu borada barcha davlat idoralari, jumladan, sudlar faoliyatida konstitutsiyaviy normalarni to'g'ridan-to'g'ri qo'llashni joriy etish bo'yicha amaliy choralar ko'riladi.

Uchinchidan, sud-huquq islohotlari yangi konstitutsiyaviy makonga uyg'unlashtiriladi. Bu jarayonda sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirish ustuvor vazifa bo'lib hisoblanadi.

To'rtinchidan, huquqiy ta'sir choralarini qo'llashda mutanosiblikni ta'minlash bo'yicha konstitutsiyaviy prinsipni ro'yobga chiqarish maqsadida qonun hujjatlaridagi **150 dan** ortiq ana shunday choralar to'liq qayta ko'rib chiqiladi.

Jumladan, ayrim qilmishlarni jinoyatlar toifasidan chiqarish va jazo turlarini o'zgartirish, fuqaroviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ma'muriy javobgarlikni bekor qilish borasida huquqiy islohotlar amalga oshiriladi.

Beshinchidan, Konstitutsiyamizda qat'iy belgilab qo'yilganidek, insonning sha'ni va qadr-qimmatini daxlsiz bo'lib, uning huquqlari va qonuniy manfaatlariga zid keladigan har qanday harakatlarga qarshi kurashish, hech shubhasiz, eng dolzarb vazifalarimizdan biridir.

Ushbu yo'nalishda asosiy e'tiborimiz bunday holatlarning oldini olishga qaratilgan samarali huquqiy mexanizmlarni joriy etishga, shuningdek, **Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili, Bolalar ombudsmeni** va boshqa inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyatini takomillashtirishga qaratiladi.

Oltinchidan, barcha islohotlarimizda inson va uning manfaatlarini markaziy o'rinda turishi va xalqimiz farononligi hamda qulay hayot kechirishini ta'minlash davlat organlari uchun bosh maqsad bo'lishi lozim. So'nggi yillarda shu maqsadda **300 ga** yaqin davlat xizmatlari to'liq raqamlashtirildi va aholiga **50 million**dan ortiq xizmatlar ko'rsatildi.

Shu bois, fuqaro va davlat o'rtasidagi munosabatlarda mavjud byurokratik to'siqlarni keskin qisqartirish hamda ushbu jarayonlardagi korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish bo'yicha ishlarni izchil davom ettirishimiz kerak.

Yettinchidan, biz "**Yangi O'zbekiston — ma'rifiy jamiyat**" konsepsiyasi asosida konstitutsiyaviy ta'lim masalasi-ga ham alohida e'tibor qaratmoqdamiz. Parlament tomonidan **Konstitutsiyani o'qib-o'rganish bo'yicha Milliy faoliyat dasturi** qabul qilindi. Asosiy qonunimizni o'rganishni bolalar bog'chasidan boshlab, barcha darajadagi ta'lim muassasalari, aholining turli qatlamlari, ayniqsa, davlat xizmatchilari ushbu jarayonga to'liq jalb etilishi lozim. Shuning uchun **davlat xizmatiga ishgah kirishda Konstitutsiya asoslari bo'yicha imtihonlar o'tkazish tizimini** amalda tatbiq etishimiz zarur.

Sakkizinchidan, Konstitutsiya va qonun ustunligini ta'minlashda davlat organlari va mansabdor shaxslarning ja-

moatchilik oldidagi hisobdorligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Bu masalada fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor beramiz. Xususan, so'nggi yillarda nodavlat notijorat tashkilotlarning soni qariyb **40 foizga** oshdi va ularni qo'llab-quvvatlashga **700 milliard so'mdan** ortiq mablag' yo'naltirildi.

Shu bilan birga, fuqarolik jamiyatining muhim sharti bo'lgan jamoatchilik nazoratini kuchaytirishimiz lozim hamda nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda ijtimoiy hamkorlikni chuqurlashtirish bo'yicha aniq amaliy choralarini ko'rishda davom etamiz.

Aziz va muhtaram vatandoshlar!

Dunyoning turli mintaqalarida **ziddiyat va qarama-qarshiliklar, qurolli to'qnashuvlar** tobora avj olib bormoqda. Oldimizda yangi-yangi muammolar paydo bo'lmoqda. Hozirgi o'ta murakkab va tahlikali vaziyatda barchamiz yanada birlashishimiz kerak. Tanlagan yo'limizdan qat'iy o'lg'a borishimiz zarurligini asrlar davomida ko'plab og'ir sinov va mashaqqatlar-dan munosib o'tgan mard va donishmand xalqimiz albatta yaxshi tushunadi.

Aminmanki, O'zbekiston Respublikasining **yangilangan Konstitutsiyasi biz uchun bu yo'lda ulkan ishonch, kuch-g'ayrat va ilhom manbai** bo'lib xizmat qiladi.

Biz Asosiy qonunimizga tayangan holda, mana shunday noyob Konstitutsiyamizning **asosiy ijodkori bo'lgan ko'pmillatli, bag'rikeng va oljanob xalqimiz** bilan birga ulkan maqsadlarimizga albatta yetamiz!

Yangi O'zbekistonni barchamiz birgalikda barpo etamiz!

Siz, aziz vatandoshlarimizni Konstitutsiya kuni bilan yana bir bor chin dildan qutlab, hammingizga shihat-salomatlik, xonadonlaringizga tinchlik-xotirjamlik, fayzu baraka tilayman.

Barcha ezgu ishlarimizda Yaratgan-ni o'zi madadkor bo'lsin!

Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo, xalqimiz omon bo'lsin!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

8-DEKABR — O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI KUNI

YANGILANGAN KONSTITUTSIYAMIZNING ILK BAYRAMI

milliy quvvatlanish asosini anglatadi

Dunyo o'zgarib bormoqda. Insoniyat tamadduni tarixiy o'zlanlari tomon qaytayotgani ham bor gap. Bunday voqealar mintaqalar, qit'alararo munosabatlarni bir oz shoshirib qo'yayotgani bugun hech kimga sir emas. Bulur — kishini mulohaza yuritishga, fikrlashga undaydigan jihatlar. O'ylashimcha, maqolamiz davomida hali bu mavzuga bir-necha bor murojaat qilamiz.

Hozir esa siz — aziz o'quvchilarni-mizni milliy jamiyatimizning uzoq vaqt davomida qotib turgan dogmatik qiyofasi qanchalik tez sur'atlarda o'zgarib borayotgani haqidagi mushohadaga chorlammoqchimiz.

Tarix bitikni yaxshi ko'radi. Uning sahifalari saboq va xulosalarga to'la. Agar xotira daftarimizni varaqlasak, hali sarg'ayib ulgurmag'an sahifalarida ko'p yillar mobaynida faqat moddiy g'am bilan yashab kelgan jamiyatimiz manzaralari ko'z oldimizdan o'taveradi.

Masalan, yaqin-yaqin qishloq va shahar hayoti tubdan farqlanardi. Qishloq odamlari shaharga kelishdan cho'chirdi, shaharliklar qishloq hayotiga achinish hissi bilan qarardi. Chunki

taraqqiyot qishloqlarni emas, ko'proq shaharlarni qamrab olgan edi. Lekin har ikki tomon ham iqtisodiy imkonlarini oshirish, ro'zg'orini butlash qayg'usida yashardi.

O'ylab ko'rsak, Yevropa yoki Sharqiy Osiyo davlatlari tafakkur nigohini boshqa sayoralarga qaratib turgan bir paytda, biz hayot tashvishlarini muhokama qilishdan, o'zaro bahslashishdan nariga o'tmabmiz.

Ammo keyingi yillarda mamlakatimiz, xalqimiz hayotida kuzatilayotgan tarixiy o'zgarishlar, katta evrilishlar barchamizni yangi mushohadalar sari chorlamoqda.

Chunki bugun dunyo mafkuraviy xaritasida "**Yangi O'zbekiston ruhi**" paydo bo'ldi. Xalqimiz

"**Yangi O'zbekiston orzusi**" bilan yashayapti. Dunyoqarashimiz tamomila boshqacha tus oldi, endi maishiy muammolardan qutilib, jamiyatdagi katta-katta masalalarni hal qilish sari ahd qildik. Davlat boshqaruvida ishtirok eta boshladik, haqiqiy ma'noda fuqarolik jamiyati qurishga kirishdik. Xalqimizda birdamlik ruhi jo'sh urmoqda.

[Davomi 3-betda](#)

XORJIY EKSPERTLAR FIKRI

YANGI O'ZBEKISTONNI, ISLOHOTLAR MAMLAKATINI VA KUCHLI IQTISODIY DAVLATNI BARPO ETISH YO'LIDA

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 31 yilligi munosabati bilan xorjiy ekspertlar va Markaziy Osiyo bo'yicha mutaxassislar o'z fikrlarini bildirmoqda.

Yanush PEXOCHINSKIY, "Polsha-Osiyo" savdo-sanoat palatasi raisi, sobiq Bosh vazir o'rinbosari:

— Konstitutsiya qabul qilingan kuni o'zgacha bayram sifatida nishonlayotgan do'st va mehnatkash O'zbekiston xalqini tabriklayman.

Ushbu buyuk qonun — yangi O'zbekistonni, islohotlar mamlakatini va kuchli iqtisodiy davlatni barpo etdi.

2023-yil yakunlariga ko'ra, mamlakatimizda global iqtisodiy o'sish o'rtacha ko'rsatkichidan 2 barobar va Yevropa Ittifoqining daromad o'sishi o'zgaray qolayotgan 10 ta mamlakatga qaraganda 5 barobar ko'p bo'lmoqda.

O'zbekiston Konstitutsiyasiga kiritilgan o'zgartirishlar, hamkorlikning yangi shartlari to'g'risidagi ma'lumotlar bizga almashinuv va hamkorlik darajasini oshirish, mamlakatimizga investitsiyalarni, shuningdek, mahsulotimizni xarid qilishni ko'paytirish uchun yangi turki beradi.

[Davomi 2-betda](#)

10-dekabr — O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi qabul qilingan kun

OLAMNI MAHLIYO AYLAGAN DIYOR

Xalqimizning azaliy orzulari, ezgu niyatlari va bugungi hayoti mazmunini aks ettirgan madhiyamiz 32 yildirki, har tongimizga shukronalik tuyg'usiy kunimizga shukuh ulashib kelyapti. Zero, madhiya mustaqilligimizning matn va musiqa uyg'unligidagi go'zal ifodasidir.

Bu ulug'vor qasidani kuylagandagina emas, tinglaganda ham qalbmizda beixtiyor umidbaxsh tuyg'ular jumbushga kelib, to'lqinlanib ketaveramiz. Negaki, ko'z oldimizda mehmondo'st, ezgu niyatli xalqimiz, yurtimiz jamoli,

o'tmishi, buguni va yorug' ertasi gavalanib turadi.

— Prezidentimizning xorjiy davlatlar-ga safarlari davomidagi oliy darajadagi uchrashuvlar chog'ida, sportchilarimiz xalqaro musobaqalarda g'oliblikni qo'lga

[Davomi 2-betda](#)

SHARH

XALQIMIZGA XOS
BAG'RIKENGLIK NAMUNASI

Kuni kecha Prezidentimiz Konstitutsiya qabul qilganining 31 yilligi munosabati bilan davlatimiz yuritayotgan insonparvarlik siyosatining amaliy tasdig'i sifatida "Jazo muddatini o'tayotgan, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan bir guruh shaxslarni afv etish to'g'risida"gi farmonni imzoladi. Farmonga muvofiq, 334 nafar shaxs afv etildi.

Hujjatda ozodlikka chiqqan shaxslarni oilasi va yaqinlari bag'riga qaytarish, ijtimoiy hayotga moslashib, foydali mehnat bilan shug'ullanishi, sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yib, jamiyatda munosib o'rin topishi uchun ularga ko'mak berish bo'yicha vazifalar ham belgilangan.

— Mazkur farmon ulkan siyosiy-huquqiy ahamiyatga ega hujjat bo'ldi, — deydi Senat a'zosi Mahmud Parpiyev. — Buning zamirida insonparvarlik g'oyasi yotibdi. Bu, shubhasiz, adashgan, lekin adashganini anglab yetgan kishilarga yana bir imkon berish, ularning jamiyatdagi mavqei, oiladagi o'rnini qayta tiklab olishi uchun sharoit yaratish, mamlakatimizda ilgari surilayotgan "Inson qadri uchun" g'oyasi amalda ifodasini topayotgani dalildir.

Belgilanganidek, afv etilgan shaxslarning 34 nafari asosiy jazodan to'liq ozod etildi, 249 nafari jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilindi, 6 nafarining ozodlikdan mahrum etish jazosi yengilroq'ga almashtirildi. Shuningdek, 45 shaxsga tayinlangan ozodlikdan mahrum etish jazosining muddatlari qisqartirildi.

Ozodlik insonga berilgan eng buyuk ne'matlardan biri. Uning qadri bilib-bilmay jinoyat sodir etgan va bugun qilmishi sabab panjara ortida turganlar juda yaxshi angelaydi. Bir lahza bo'lsa-da o'z uyida, ota-onasi va far-

zandlari bag'rida bo'lish ular uchun eng katta orzu.

Namanganlik H.Ismoilov ham Konstitutsiya bayramini o'z uyida, oilasi bag'rida nishonlaydigan bo'ldi. Bu yil 20 yoshga qadam qo'ygan yigit onasining ishongan tog'i edi. Ammo birgina xato uni panjara ortiga yetakladi. Hozir qilmishidan chin dildan pushaymon bo'layotgan Hojiakbar muddatidan ikki yil oldin ozod hayotga qaytmoqda.

— Qilgan jinoyatimdan chin dildan pushaymonman. Bu qilgan ishim sha'nimga tushgan dog' bo'ldi. Afv to'g'risidagi farmon bilan ozodlikka chiqib ketyapmiz, — deydi H.Ismoilov. — Bu davr mobaynida ozodlikda bo'lganida, qanchadan-qancha yutuqlarga erishgan bo'larim. Afsuski, yaxshi kunlarimni panjara ortida o'tkazishga to'g'ri keldi. Men bu yerdaligimda otam olamdan o'tdi. Endi onamning orzularini ro'yobga chiqarish harakatida bo'laman. Qaytib bu yo'lga kirmayman.

Hech kim yaqinlarini o'zidan yiroqda tutunlikda ko'rishni istamaydi. Oila, qadrdonlar davrasida o'tgan har bir kun, har lahza bayram. Shu bois, ota-onasi va farzandlari bag'riga qaytayotgan bu insonlarning hayajonini tushunish mumkin. Ular bu yerdan ozodlik, erkinlikning qadri yuz karra ziyodroq anglab chiqyapti.

Surxondaryolik R.Shermatova ham bir necha yillarni farzandi F.Shoymar-donov yo'lga ko'z tikib kunni tunga, tunni

kunga ulab o'tkazdi. Afv etish to'g'risidagi farmon bilan uning farzandi ham kechirilib, oilasi, onasi bag'riga qaytdi.

— Bu bag'rikenglikdan boshimiz ko'kka yetdi, — deydi R.Shermatova. — Bayram arafasida oilamiz ham, ko'nglimiz ham to'ldi. Farzandim endi hayotda to'g'ri yo'lni tanlab, jamiyatimizga xizmat qiladi, afvning qadriga yetib, bu ishonchni oqlaydi, albatta.

Afv etilganlar bundan keyin nafaqat oila a'zolari, balki mahalladoshlar, umuman, keng jamoatchilik e'tiborida bo'ladi. Farmonda afv etilgan shaxslar ijtimoiy hayotga moslashib, foydali mehnat bilan shug'ullanishi, sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yib, jamiyatda munosib o'rin topishi uchun ularga ko'mak berish maqsadida mas'ul vazirlik va idoralarga tegishli topshiriqlar berildi.

Aslida, osoyishta kunlarning qadriga yetish uchun xatoga yo'l qo'yishga hojat yo'q. Ammo zulmatni boshidan kechirgan inson yorug' kunlarning qadriga ko'proq yetadi. Bugun tuzalish yo'lga o'tgan bu yurtdoshlarimiz oldida esa bildirilgan ishonchni oqlash, yurtga munosib farzand bo'lish vazifasi turibdi.

Lutfulla SUVONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

10-dekabr — O'zbekiston Respublikasi
Davlat madhiyasi qabul qilingan kun

OLAMNI MAHLIYO AYLAGAN DIYOR

Boshlanishi 1-betda

Madhiya xususida so'z ketar ekan, avvalo, bu muqaddas qo'shiq Abdulla Oripov va Mutal Burxonovdek ikki buyuk ijodkorning go'zal ijod mahsuli ekanini aytmoq joiz.

Yosh avlod qalbiga davlat ramzlariga cheksiz muhabbat tuyg'usini singdirayotganimizda, har bir davlatning madhiyasi o'sha xalqning orzu-umidlari, ozodligidan dunyoga aks sado berib turishi, O'zbekiston madhiyasi ham hech kimdan kam emasligimiz va kam bo'lmasligimizni namoyon etishini alohida ta'kidlashimiz kerak.

Yuksak vatanparvarlik tuyg'usini mujassam etgan madhiyamiz bugun ta'lim maskanlarida yosh avlodning Vatanga muhabbat ruhida kamol topishiga xizmat qilmoqda. Bolalar bog'chasiga boradigan yoki endigina maktab partasi-ga ko'nikayotgan dilbandlarimiz ulug'vor qo'shiqimizni g'urur bilan kuylasa, hayajonga tushamiz.

— Maktabimizda o'tkaziladigan har bir tadbir davlatimiz madhiyasi bilan boshlanadi. Shuning uchun madhiya ijrosiz tadbirni tasavvur ham qila olmayman, — deydi poytaxtimizdagi 41-umumta'lim maktabi direktori Gulnora Muzafarova. — Texnik sabablarga ko'ra, madhiyamizni baralla yangratish imkoni bo'lmay qolsa ham xavotirga o'rin yo'q. O'quvchilarimiz jo'rikkada maromiga yetkazib kuylayotganidan quvonaman. Kelajagimiz vorislarini davlat ramzlarini hurmat qilishga o'rgatar ekanimiz, ayniqsa, madhiya yangrayotgan payt o'zini qanday tutishga e'tibor qaratishimiz zarur. Bu qo'shiq aytilyotgan chog' qoidalarga rioya qilmaydigan ayrim yoshlar bir narsani bilishi shart. "O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida"gi qonunning 7-moddasida madhiya ko'pchilik huzurida ijro etilganda, agar qonunchilikda boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, hozir bo'lgan kishilar madhiyani tik turib va o'ng qo'l kaftini ko'krakning chap tomoniga qo'yib, harbiy yoki davlatning boshqa xizmatidagi maxsus kiyimdagi shaxslar esa qo'lini bosh kiyimiga qo'yib tinglaydi.

YOSHLAR, VOYAGA YETAYOTGAN FARZANDLARIMIZ, KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI VA HATTO MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TARBİYALANAYOTGAN BOLALARGA MADHIYANING MAZMUNINI CHUQUQ SINGDIRISHIMIZ KERAK. TOKI ULAR VATAN DEGAN TUSHUNCHANI YURAKKA CHUQUQ JO ETGAN, UNING QADR-QIMMATINI HAR NARSADAN USTUN TUTADIGAN, MADHIYA YANGRAGANDA ICH-ICHIDAN FAXR TUYADIGAN VA O'ZI MANSUB BO'LGAN YURT, ELGA FAQAT YAXSHILIKLAR TILAYDIGAN, INSONLIK NOMIGA MUNOSIB BO'LISHGA INTILADIGAN AVLOD O'LAROQ KAMOLGA YETSIN.

Agar madhiyaning ijro etilishi davlat bayrog'i ko'tarilishi bilan birgalikda amalga oshirilsa, hozir bo'lgan kishilar unga yuzi bilan buriladi, deyilgan.

Yozuvchilar uyushmasi o'quv-metodika va harbiy vatanparvarlik bo'limi boshlig'i Ma'mura Zohidova madhiyamiz bilan bog'liq samimiy fikrlarini bildirib, bunday dedi:

— Davlatimiz madhiyasi jahondagi eng tantanavor madhiyalardan biridir. U millatimizning ma'naviy dunyosini o'zida ifodalagan. Madhiyamizni tinglaganda kishi o'zining shu Vatanga daxldorligini his qiladi. Ajodlar chaqiriqlari qulog'ing ostida jaranglayotganday bo'ladi. Shoir madhiyaning matnini nihoyatda xalqchil yaratgan. Har satri tugal bir nom. Madhiyamizdagi satrlar bilan ko'plab tantanalarni, ma'naviy kechalarni nomlaymiz. Jumladan, "Ajodlar mardona ruhi senga yor", "Olamni mahliyo aylagan diyor", "Yashnagay ilm-u fan, ijod", "Serquyosh, hur o'lkam".

Yoshlar, voyaga yetayotgan farzandlarimiz, kichik maktab yoshidagi va hatto maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarga madhiyaning mazmunini chuqur singdirishimiz kerak. Toki ular Vatani degan tushunchani yurakka chuqur jo etgan, uning qadr-qimmatini har narsadan ustun tutadigan, madhiya yangraganda ich-ichidan faxr tuyadigan va o'zi mansub bo'lgan yurt, elga faqat yaxshiliklar tilaydigan, insonlik nomiga munosib bo'lishga intiladigan avlod o'laroq kamolga yetsin.

Ertamiz egalari davlatimiz ramzlari-ning har biri, xususan, madhiyamiz ham

shunchaki yaralib qolmagani, qancha chig'iriqdan o'tib, tanlovlar asosida tanlanganini bilishi zarur. Bu ularning suverenitetimiz timsollariga hurmatini oshirishda muhim omil bo'ladi. Shu o'rinda xalqimizning sevimli shoiri Abdulla Oripovning turmush o'trog'i Hanifa ayaning quyidagi gaplarini takror yodga olish o'rinni bo'laveradi:

— Ertaga sessiya bo'ladigan kun, mamlakatimiz madhiyasi tanlanadi. Mutal aka kirib keldi. Abdulla aka bilan madhiyaning musiqaga tushmayotgan so'zlari ustida ishlashlari kerak edi. Obdon ishladilar. O'sha kuni tong sa-harga qadar ularning xizmatida bo'lib, bitta so'z uchun qancha vaqt sarflanishiga guvoh bo'lganman. Bolalarimiz ham uxlaguniga qadar jo'r bo'lib kuylab ko'rdi. Qizim musiqasini chalib, jo'r bo'ldi. Umuman, butun oilamiz hayajon bilan Abdulla akaning madhiyasi tanlovdan o'tishini istadik. Eng qizig'i, "Olamni mahliyo aylagan diyor" satri "Olamni o'ziga qaratgan diyor" tarzida edi. "O'ziga qaratgan" so'zlari hech musiqaga tushavermadi. Nihoyat, sa-harga yaqin uning "mahliyo aylagan" degan muqobil topildi. Tanlov natijasi esa biz kutgandek bo'lib chiqdi.

Ha, allaqachon e'tirof etilganidek, madhiyamizning har bir satri, har bir so'zi zalvorli, ulug'vor, musiqasi shijoatli. Bu esa "Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon"ning boylig'iga ishoradir.

Munojat MO'MINOVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

MUNOSABAT

ASOSIY QONUNNING
BEVOSITA AMAL QILISHI

SUDLAR FAOLIYATIDA QANDAY AHAMIYATGA EGA?

Konstitutsiyamizga bevosita amal qilish tamoyili asosida kiritilgan muhim o'zgartirish va qo'shimchalardan ko'zlangan pirovard maqsadlardan biri, avvalo, inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini oliy qonun darajasida yanada mustahkamlash, mamlakatda konstitutsiyaviy tartibot va qonuniyligni, uning davlat idoralari faoliyatida, har bir fuqaro hayotida to'g'ridan-to'g'ri amal qilishini ta'minlashdan iborat.



Abduqayum MAHKAMOV,
Qashqadaryo viloyati
sudi raisi

Asosiy qonunimizning bevosita amal qilishi sudlar faoliyatida huquqiy jihatdan qanday ahamiyat kasb etadi, bu borada xorijiy mamlakatlar tajribasining o'ziga xos jihatlari nimada? Nima uchun sud hujjatlarini kodekslar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan asoslaymizda, Konstitutsiyani to'g'ridan-to'g'ri qo'llamaymiz?

Avvalo, bu borada jahon davlatlarining konstitutsiyashunoslik amaliyoti-ga nazar tashlasak, Konstitutsiyaning davlat ichida amal qilishi (qo'llanilishi) yuzasidan ikki xil nazariy yondashuv mavjudligini qayd etish lozim. Birinchi yondashuv Bosh qonunning huquqni qo'llash amaliyotida bevosita amal qilishi bo'lsa, ikkinchisi uning bilvosita qo'llanilishidir. Albatta, har ikkala yondashuv ham Konstitutsiyaning ustunligini, boshqa hech qanday normativ-huquqiy hujjatlar unga zid kelishi mumkin emasligini e'tirof etadi.

Ko'plab xorijiy mamlakatlar sudlarining odil sudlov sohasida huquqni qo'llash amaliyotida Konstitutsiyaning bevosita amal qilishi, sud qarorlarida to'g'ridan-to'g'ri qo'llanilishi alohida e'tiborga molikdir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Bosh qonunimizga kiritilgan demokratik o'zgartirish va qo'shimchalar ham mazmuni va ahamiyatiga ko'ra, odil sudlovni amalga oshirishda, huquqni qo'llash amaliyotida soha vakillari zimmasiga katta mas'uliyat yuklashi barobarida jamiyat hayotida Konstitutsiyaning bevosita amal qilishini, uning ustuvorligini ta'minlashdek vazifani ham yuklaydi. Zero, hanuzgacha milliy sud amaliyotida Konstitutsiyani qo'llash, sud hujjatlarini (hal qiluv qarori, hukm, qaror) nafaqat joriy qonunlar, balki konstitutsiyaviy normaler bilan ham asoslash sud statistikasida de-yarli uchramagandi.

E'tibori jihat shundaki, "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi oliy yuridik kuchga ega bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi va O'zbekiston Respublikasining butun hududida qo'llaniladi", degan norma bejiz kiritilmagan. U Bosh qonunimizning barcha davlat idoralari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida bevosita amal qilishi va qo'llanilishi lozimligini nazarda tutmoqda. Holbuki, sud davlat hokimiyatining alohida va mustaqil tarmog'i sifatida sud hujjatlarida Konstitutsiyani bevosita qo'llash orqali uni harakatga keltiruvchi, konstitutsiyaviy huquq tartibotni mustahkamlovchi yagona va oliy organdir.

Shunday ekan, sud hujjatlarida Bosh qonunimizda kafolatlangan inson huquqlariga oid normalar to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilishi, sud qarorlarini Konstitutsiya bilan asoslash amaliyotiga o'tish fuqarolarning huquqiy ongi va tafakkurini yuksaltirishi bilan birga, jamiyatda Konstitutsiya va qonunlar-ga hurmatda bo'lish mas'uliyatini ham birdek oshirishi shubhasiz.

XORIJY EKSPERTLAR FIKRI

YANGI O'ZBEKISTONNI, ISLOHOTLAR
MAMLAKATINI VA KUCHLI IQTISODIY
DAVLATNI BARPO ETISH YO'LIDA

Boshlanishi 1-betda

Biz polyaklar, ayniqsa, yangi, zamonaviy iqtisodiyot, zamonaviy davlat qurish qanchalik qiyin ekanini yaxshi bilamiz. O'zbekiston Prezidentining oqilona siyosati tufayli hamma harakatlari aniq reja asosida to'g'ri amalga oshirilmoqda. Bu borada "O'zbekiston — 2030" strategiyasi juda muhim ahamiyatga ega.

O'ylaymanki, kelasi yili Varshava va Toshkent o'rtasida yo'lga qo'yiladigan to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlar natijasida O'zbekistonga tashrif buyuradigan sayohatlar soni bu yilgiga qaraganda 2-3 barobar oshadi.

Konstitutsiyangizda hukumat va xalq o'rtasidagi demokratik munosa-



batlar g'oyat qiziqarli ifodalangan. Bu juda muhim omil.

MARKAZIY OSIYO MINTAQASINING BARQAROR RIVOJLANISHI UCHUN KONSTITUTSIYA MODDALARI O'ZBEKISTON BARCHA DAVALTLAR, BIRINCHI NAVBATDA, QO'SHNI MAMLAKATLAR BILAN TINCHLIKSEVAR VA DO'STONA SIYOSAT YURITISHI, TASHQI SIYOSATI INSON HUQUQ VA ERKINLIK LARI, HUDUDIY YAXLITLIK PRINSIPI VA NORMALARINI HURMAT QILISHGA ASOSLANISHI BILAN MUHIM AHAMIYATGA EGA.

Go'zal MAYTDINOVA,
Rossiya — Tojikiston (slavyan)
universitetining Xorijiy
mintaqashunoslik va tashqi
siyosat kafedrasini professori,
universitetning geosiyosiy
tadqiqotlar markazi direktori, tarix
fanlari doktori:

— 2023-yilda O'zbekistonda amalga oshirilgan konstitutsiyaviy islohotlar yangi O'zbekistonni barpo etish uchun ishonchli, mustahkam huquqiy asos yaratdi, shuningdek, Asosiy qonunni mamlakatdagi modernizatsiya jarayon-

lariga moslashtirdi. Bundan tashqari, mamlakat mustaqilligini asrab-avaylash va yanada mustahkamlash, "Inson qadri uchun" tamoyili asosidagi islohotlarni jadal davom ettirish va qonun ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan. Konstitutsiyaviy qonunni tayyorlashda BMT, YXHT, SHHT, Yevropa Ittifoqi, Turkiya davlatlar tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan 40 ta xalqaro hujjat, 190 ga yaqin davlat konstitutsiyalari tajribasi o'rganildi. O'zbekistonning zamonaviy konstitutsiyasi "Inson qadri uchun" tamoyilliga asoslanadi va "Inson —

Kemal Yavuz ATAMAN,
tadqiqotchi va yozuvchi (Turkiya):

— 8-dekabr — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun o'zbek xalqi tomonidan keng nishonlanmoqda. Bu yil qardosh O'zbekistonning Asosiy qonuni uchun juda muhim yil bo'ldi. Konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha referendum o'tkazilib, uning matni 65 foizga yangilandi, har jihatdan umummilliy huquqiy normalarni qamrab oldi. O'zbekistonda barcha fuqarolar teng huquq va erkinliklarga egaligi, qonun oldida barobarligi mustahkamlab qo'yildi.

Shu o'rinda qayd etish kerakki, bugungi O'zbekiston zaminini ko'plab olim va ulamolarning uchun beshik bo'lgan. Bundan tashqari, ushbu zamin huquqiy davlatchilik rivojida va umuminsoniy ta'limotlarning yuzaga kelishida ham katta rol o'ynagan. Inchinun, yangi O'zbekiston ushbu tarixiy merosni zamon bilan hamnafaslikda hayotga tatbiq etib kelayotir.

Yangilangan Konstitutsiyaning muhim xususiyatlaridan biri, bu — ilm-fan, san'at va ta'lim sohalariga katta e'tibor qaratilganidir. Unda, shuningdek, yoshlar va ayollar huquqlari ham yanada mustahkamlangan.



jamiyat — davlat" degan o'zaro uyg'un yondashuvni amalga oshiradi.

Markaziy Osiyo mintaqasining barqaror rivojlanishi uchun Konstitutsiya modalari O'zbekiston barcha davlatlar, birinchi navbatda, qo'shni mamlakatlar bilan tinchliksevar va do'stona siyosat yuritishi, tashqi siyosati inson huquq va erkinliklari, hududiy yaxlitlik prinsipi va normalarini hur-

mat qilishga asoslanihi bilan muhim ahamiyatga ega.

Ta'kidlash joizki, O'zbekistonning xalqaro gumanitar tashabbuslari doimo Markaziy Osiyo davlatlari tomonidan keng qo'llab-quvvatlanib kelgan. Jahon savdo yo'llari va Janubiy Osiyo davlatlariga chiqish imkoniyati cheklangan qit'adagi Markaziy Osiyo davlatlari uchun O'zbekiston tomonidan 40 ta mamlakat hammuallifligida ishlab chiqilgan Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni mustahkamlash to'g'risidagi BMT Bosh Assambleyasining maxsus rezolyutsiyasi qabul qilingani strategik ahamiyatga ega.

O'zbekistonning yangilangan Konstitutsiyasida belgilangan tashqi siyosatning barcha tamoyillari hayotga tatbiq etilib, Markaziy Osiyoda davlatlararo munosabatlarni barqarorligiga erishish, iqtisodiy va gumanitar hamkorlikni faollashtirishda aniq samaralar bermoqda.

"Dunyo" AA

8-DEKABR – O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI KUNI

YANGILANGAN KONSTITUTSIYAMIZNING ILK BAYRAMI

milliy quvvatlanish asosini anglatadi



Salim DONIYOROV

Boshlanishi 1-betda

Bu jarayonda bir haqiqatni anglab yetdik. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 19-yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligini kuchaytirish masalalarini bo'yicha o'tkazgan videoselektor yig'ilishida biz uzoq yillar e'tiborsiz qoldirgan mukammal hayot haqiqatini ilgari surdi: **"Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir"**.

Bu egiz tushuncha yangilangan jamiyatimiz va xalqimiz orzu-umidlari, tomirlarimizda jo'sh urib turgan zakolik fe'lining qayta quvvatlanayotgani mujdasi bo'ldi.

Konfutsiy hikmatida shunday deyiladi: **moddiyotning ortida ezgulik nish urmog'i uchun besh narsa kifoya: ko'ngil kengligi, samimiyat, shiddat, yaxshilik va jiddiylik.**

Aytish kerakki, yangi O'zbekistonda mana shu besh ehtiyojning hayotiy qiyofasi ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy asoslarda shakllanib bormoqda. Boisi, yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizda **O'zbekiston suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat** ekani aniq-tiniq belgilab qo'yildi.

Konstitutsiyamizning mazkur besh tamoyili moddiyot ortida ezgulik nish urmog'i bilan bog'liq besh kifoyaga qanday aytgani borligi ham qiziq. Endi gapni shundan boshlaymiz.

Maqolamiz avvalida insoniyat tamaduni tarixiy o'zlariga qaytayotgani, bu hodisa mintaqalar, qit'alararo munosabatlarga ta'sir qilayotgani haqida aytgan edik. Mana shu o'zgarayotgan mezonlar, davlatimiz rahbari ta'bir bilan aytganda, jahon miqyosida ishonch inqiroziga sabab bo'lmoqda.

Eng ayanchlisi, bunday ishonchsizlik kayfiyati ayrim davlatlarning ichki muhitida ham kuzatilayotganidir. Millatlar, dinlararo ziddiyatlar, qurolli mojarolarni ko'rib turibmiz.

Shunday tahlikali vaziyatda xalqaro munosabatlardagi bag'rikenglik, o'zaro anglash va birgalikda rivojlanish tendensiyalarini rivojlantirish har qachongidan ham muhim va hayot-mamot masalasi aylanib bormoqda.

Gap shu haqda ketganida, Markaziy Osiyo mintaqasi qadimdan kenglik diyori bo'lib kelgan. O'zbekiston zamini esa bag'rikenglik o'lkasi sifatida o'z tarovatini tobora mustahkamlab borayotganini alohida faxr bilan aytamiz.

yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsiplariga asoslandi.

Yoki yana bir misol. Bosh qonunimizda O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlashi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratishi belgilangan.

Hokimiyatlar bo'linishi prinsipi ham kenglik namunasidir. O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati tizimi — hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipi asoslanadi. Bu, o'z navbatida, demokratik tamoyillar rang-barangligi va fuqarolar manfaatlarini ta'minlashda huquqiy asoslar mustahkamligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Dunyoviy munosabatlarda kun sayin o'zgarib bormoqda. Insoniyatni yangi xavf-xatarlar va ekologik inqiroz qurshab olgan. Bunday sharoitda, o'zbekona lutf bilan aytganda, siyosiy munosabatlarda hamjihatlik va keng fe'llilik talab etiladi. Shu ma'noda, yangi O'zbekistonning tashqi va ichki siyosati jamiyatimizdagi tarixiy bag'rikenglik va kenglik falsafasidan quvvatlanib turganini alohida ta'kidlashni istardik.

Yangilangan Konstitutsiyamizda hayot ohangi bor. U goh farovonlik asosi, goh intellektual boyluk, goh inson qadri ulug'lanishi bilan kishini o'ziga tutadi. Buni hayotimizni o'zgartirishga qaratilgan maqsadlarda ko'rishimiz mumkin.

Farovonlik asosi. Zamon o'zgarib turadi. Bu — qonuniyat. Mustaqillikka erishgan ilk yillarni yaxshi eslaymiz: oziq-ovqat zaxirasida jiddiy taqchilik kuzatildi, nonga uzluksiz navbatlar yuzaga keldi, aksariyat aholini ro'zg'or qayg'usi qiynab qo'ydi.

U kunlar ham tarixda qoldi. Lekin hozir biz boshqa bir muammo haqida aytmoqchimiz. Yaqin-yaqingacha xalqimizni yana bir jiddiy muammo qiynab keldi. Bu — uy-joy tashvishi. Shaharlarda katalakdek hovlida uch-to'rt ro'zg'or yashaganini halli unutganimiz yo'q.

Keyingi yillarda umummilliy tus olgan bu muammoga ham yechim topildi. Bugun vaziyat mutlaqo boshqacha. Arzon uy-joylar, ipoteka ta'minoti, imtiyozli shartlar, bularning bari xalqimiz orzusidagi ish bo'ldi.

Quvonarlisi, bu boradagi siyosat ortga qaytmis tus oldi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda har kim uy-joy daxlsizligi, uy-joyli bo'lish huquqiga egaligi, davlat uy-joy qurilishini rag'batlantirishi va uy-joyga bo'lgan huquqning amalga oshirilishi uchun shart-sharoitlar yaratishi, aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarini uy-joy bilan ta'minlash tartibi qonun bilan belgilandi.

Jamiyatdagi farovonlik muhitining yana bir asosi ham konstitutsiyaviy ko'rinish oldi. Ya'ni homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlandi.

Intellektual boyluk. Milliy davlatliligimiz tarixida o'qituvchining mehlinati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish



hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy, madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etilishi ilk bor konstitutsiyaviy maqom tusini oldi.

Unga ko'ra, endilikda davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy, moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qilishi, bundan tashqari, bolalar mehnatining bolaning sog'lig'iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan, uning ta'lim olishiga to'sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanishi belgilandi.

Endi o'zingiz o'ylab ko'ring, yaqin yillargacha — bir asr mobaynida millionlab yurtodoshlarimiz majburiy mehnatga jalb qilib kelindi. Har yili erta kuzdan qora qishqarga o'qituvchilar, shifokorlar, ijtimoiy soha xodimlari, davlat xizmatchilari, talabalar va o'quvchilar paxta dalasida mehnat qildi, "yashadi".

Shu tariqa mamlakatda intellektual salohiyat g'ariblik to'lini kiyishga majbur bo'ldi. Buning bir mamlakat, xalq kelajagi uchun qanchalik tahdidli ekanini anglash bugun unchalik qiyin emas.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqida shu haqda gapirar ekan, jumladan, **"Qat'iy irodamiz tufayli endi bularning barchasi o'tmishga aylandi. Xalqimiz paxta qulligidan butkul ozod bo'ldi. Yangi Konstitutsiyamizda majburiy mehnat taqiqlanishi kafolatlab qo'yildi va buning uchun jinoiy javobgarlik belgilandi. Majburiy va bolalar mehnatiga qarshi kurashni butun dunyo miqyosida kuchaytirish zarur, deb hisoblayman. Bizning tajribamiz shuni ko'rsatmoqdaki, bunga chek qo'yish imkoni bor"**, degani bejiz emas, albatta.

Ayniqsa, majburiy va bolalar mehnatiga qarshi kurashni butun dunyo miqyosida kuchaytirish zarur, deya qayg'urgani yangi O'zbekistonning insonparvarlik siyosati namunasi bo'ldi. Chunki qaysi davlatda majburiy mehnat va bolalar mehnati avj olar ekan, u o'lkada taraqqiyot ortga chekinib turadi, inqirozga yo'l beradi. Nimaga

deganda, bugungi zamon bilimlar, ilg'or texnologiyalar asri bo'lib qoldi. Hozirgi taraqqiyot va geosiyosiy vaziyat ham shuni taqozo etmoqda.

Inson qadri ulug'lanishi. O'tgan asrda ishlangan "Temir xotin" filmi ko'rma-gan yurtdoshimiz yo'qdir. Qo'chqor akani eslaysiz. U Alomatning qadr-qimmat haqidagi gapidan so'ng o'ksib yig'lagani-chi?

Rost aytaylik, paxta dalalaridagi mehnatkashlar qadri yaqin-yaqingacha shunday edi-ku. Bugun mamlakatimizda inson qadri yuksaldi. **"Davlat — inson uchun" tamoyili** kuchga kirdi.

Jamiyatda insonlarni qadrlash siyosat boshlanganida, unga ishonchsizlik kayfiyati ham bo'ldi. Buni yashirmaymiz. Goh oramizda, goh chetdan turib: "Bu vaqtinchagina. Ertaga hammasi yana eski qolipga qaytadi", deguvchilar ham topildi.

Ammo biz tanlagan yo'l, qanchalik qiyin bo'lmasin, ortga qaytmis ekanini mana bugun o'z hayotimiz misolida isbotlab turibmiz.

Ha, bu yo'l endi Konstitutsiya yo'liga aylandi. Ulardan biri mana shunday ifodalandi: O'zbekiston fuqarosi mamlakatdan tashqariga majburiy chiqarib yoki boshqa davlatga berib yuborilishi mumkin emasligi, shuningdek, davlat to'rtida yashayotgan vatandoshlar bilan aloqalarni saqlab qolish hamda rivojlantirish to'g'risida xalqaro huquq normalariga muvofiq g'amxo'rlik qilishi ilk bor Konstitutsiya darajasida mustahkamlandi.

Yoki boshqa misol. Bosh qonunimizda insonning sha'ni va qadr-qimmatini daxlsizligi, hech narsa ularni kamitish uchun asos bo'lmasligi, shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo'lishi mumkin emasligi qat'iy taqiqlandi.

Guvohi bo'lib turganimizdek, bugun biz tanlagan va allaqachon ijrosini ta'minlayotgan milliy taraqqiyot yo'limizning ortga qaytmisligiga hech shubha yo'q.

Dunyo o'zgarib boryapti, dedik. O'zgarishlar har doim yangicha qarash va munosabatlarni, talab va ehtiyojlarni yuzaga keltiradi. Bu, o'z navbatida, insonlar va jamiyat ko'nikkan mezonlarga ham ta'sir ko'rsatadi.

Aytaylik, biz yaqin-yaqingacha dunyodagi geosiyosiy vaziyatning bu qadar keskin tus olishini o'ylamas edik. Iqlim o'zgarishlarining bugungi va yaqin kelajakdagi ta'siri haqida ham ko'p qayg'urmay qo'ygandik. Lekin tiriklik fursati insoniyatni doim kurashga chorlab keladi.

Shu ma'noda aytish kerakki, yangi O'zbekistonning ilg'or tashabbuslari dunyo miqyosida e'tirof etilayotgani ham shu kurash yo'lidagi birdamlik hissini ulg'aytiradi, shiddat belgisini cho'g'lantiradi.

Bu jihatlarda yangilangan Konstitutsiyamiz ruhida ham ufuq berib turibdi.

deganda, bugungi zamon bilimlar, ilg'or texnologiyalar asri bo'lib qoldi. Hozirgi taraqqiyot va geosiyosiy vaziyat ham shuni taqozo etmoqda.

Inson qadri ulug'lanishi. O'tgan asrda ishlangan "Temir xotin" filmi ko'rma-gan yurtdoshimiz yo'qdir. Qo'chqor akani eslaysiz. U Alomatning qadr-qimmat haqidagi gapidan so'ng o'ksib yig'lagani-chi?

Rost aytaylik, paxta dalalaridagi mehnatkashlar qadri yaqin-yaqingacha shunday edi-ku. Bugun mamlakatimizda inson qadri yuksaldi. **"Davlat — inson uchun" tamoyili** kuchga kirdi.

Jamiyatda insonlarni qadrlash siyosat boshlanganida, unga ishonchsizlik kayfiyati ham bo'ldi. Buni yashirmaymiz. Goh oramizda, goh chetdan turib: "Bu vaqtinchagina. Ertaga hammasi yana eski qolipga qaytadi", deguvchilar ham topildi.

Ammo biz tanlagan yo'l, qanchalik qiyin bo'lmasin, ortga qaytmis ekanini mana bugun o'z hayotimiz misolida isbotlab turibmiz.

Ha, bu yo'l endi Konstitutsiya yo'liga aylandi. Ulardan biri mana shunday ifodalandi: O'zbekiston fuqarosi mamlakatdan tashqariga majburiy chiqarib yoki boshqa davlatga berib yuborilishi mumkin emasligi, shuningdek, davlat to'rtida yashayotgan vatandoshlar bilan aloqalarni saqlab qolish hamda rivojlantirish to'g'risida xalqaro huquq normalariga muvofiq g'amxo'rlik qilishi ilk bor Konstitutsiya darajasida mustahkamlandi.

Yoki boshqa misol. Bosh qonunimizda insonning sha'ni va qadr-qimmatini daxlsizligi, hech narsa ularni kamitish uchun asos bo'lmasligi, shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo'lishi mumkin emasligi qat'iy taqiqlandi.

Guvohi bo'lib turganimizdek, bugun biz tanlagan va allaqachon ijrosini ta'minlayotgan milliy taraqqiyot yo'limizning ortga qaytmisligiga hech shubha yo'q.

Dunyo o'zgarib boryapti, dedik. O'zgarishlar har doim yangicha qarash va munosabatlarni, talab va ehtiyojlarni yuzaga keltiradi. Bu, o'z navbatida, insonlar va jamiyat ko'nikkan mezonlarga ham ta'sir ko'rsatadi.

Aytaylik, biz yaqin-yaqingacha dunyodagi geosiyosiy vaziyatning bu qadar keskin tus olishini o'ylamas edik. Iqlim o'zgarishlarining bugungi va yaqin kelajakdagi ta'siri haqida ham ko'p qayg'urmay qo'ygandik. Lekin tiriklik fursati insoniyatni doim kurashga chorlab keladi.

Shu ma'noda aytish kerakki, yangi O'zbekistonning ilg'or tashabbuslari dunyo miqyosida e'tirof etilayotgani ham shu kurash yo'lidagi birdamlik hissini ulg'aytiradi, shiddat belgisini cho'g'lantiradi.

Bu jihatlarda yangilangan Konstitutsiyamiz ruhida ham ufuq berib turibdi.

"Yangi O'zbekiston — 2030" strategiyasining Konstitutsiya bilan bog'liq jihatlari qanday? Gap shundaki, yangilangan konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini takomillashtirish va amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish talab etilmoqda.

Xalqimizning erkin va farovon, qudratli yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolati ta'minlash maqsadida katta yo'lga chiqqanmiz.

Bu yo'lning asosiy g'oyasi insonlarga yaxshilik qilish, odamlar bugun hayotdan rozi bo'lib yashashi uchun mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, yangi loyihalarni tatbiq etish. Barcha uchun teng imkoniyat va sharoitlar yaratishdir.

“BUGUN BIZ 8-DEKABR SANASINI ILK BOR YANGI TAHRIRDA QABUL QILGAN KONSTITUTSIYAMIZ RUHI BILAN NISHONLAR EKANMIZ, BU BAYRAM SIYOSIY YETUKLIGIMIZ, IJTIMOYI INTILISHLARIMIZ, IQTISODIY YUKSALISHIMIZ, MA'NAVIY-MA'RIFIY SALOHİYATIMIZ, UMUMAN OLGANDA, DUNYODA HECH KIMDAN KAM EMASLIGIMIZ, BALKI QUDRATLI XALQ EKANIMIZ, O'ZARO YANGILANGAN TAHRIRDAGI UCHRASHUVLARIMIZ BAYRAMIDIR.

O'zbekiston sharoitida o'zining yuksak bosqichiga chiqdi, deyish mumkin.

Bir qarashda oddiy qaror, lekin uning zamirida millat dahosi ulg'ayishi bilan bog'liq kelajak taqdir turganini anglassak, biz anglangan haqiqatlar naqadar qudratli kuchga ega ekanini bilib olamiz.

Tarix daftarini varaqlasak, daholar erishgan ko'p yutuqlarda ayollarning beqiyos o'rni borligini bilib olamiz. Shu ma'noda, o'zgarayotgan dunyoda, tarixiy haqiqatlarim tiklanayotgani fonda davlat va jamiyat boshqaruvida ayollarga erkaklar bilan teng huquq hamda imkoniyatlar berish ma'naviy va iqtisodiy yutuqlar kafolati sifatida bo'y ko'rsatadi.

Navbatdagi masala esa, inson bilan davlat organlarining o'zaro munosabatlarga doir. Bu ham taraqqiyotning asosiy mezonlaridan biridir. Negaki, qaysiki mamlakatda inson qadriga ustuvor e'tibor berilar ekan, o'sha o'lkada yangi g'oyalar, tashabbuslar va fikrlar xilma-xilligi kuzatiladi. Taraqqiyot esa fikrlash, deganidir.

Fikr qachon paydo bo'ladi? Qachonki, inson erkin va huquqiy-siyosiy kafolatga ega bo'lsagina.

Biz xalq davlat boshqaruvidan uzoqlashtirilgan davri ham ko'rdik. Uning og'riqlari hamon tanamizni zirqirab turadi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda esa xalq hokimiyati tamoyillari mustahkamlandi. Bu birgina "O'zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat" ekanida ham ko'zga tashlanadi.

Prezidentimizning joriy yil 16-noyabrda "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi farmoyishida Bosh qonunimiz bayramini bugungi davr ruhiga hamohang tarzda nishonlash, yangilangan Konstitutsiyamiz mazmun-mohiyati va "O'zbekiston — 2030" strategiyasining asosiy ustuvor yo'nalishlari doirasida belgilangan tub islohotlar haqida mahallalar, ta'lim va mehnat jamoalarida ma'rifiy uchrashuv va suhbatlar o'tkazishga alohida e'tibor qaratilishi belgilangan edi.

Shu bois, "Konstitutsiya — xalqchil davlat, barqaror taraqqiyot va farovon hayot asosi!", sifatida belgilandi. Mana shu g'oya zamirida yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz muqaddimasida ta'kidlanganidek, yagona xalqimizning demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g'oyalari sadoqati namoyon bo'ladi. Bu besh g'oya atrofida jamiyatimizning yangilanayotgan qiyofasi jonlanadi.

Prezidentimizning Konstitutsiya kuni munosabati bilan xalqimizga yo'llagan bayram tabrigini alohida e'tibor va katta qiziqish bilan o'qidik.

"Dunyoning turli mintaqalari-da ziddiyat va qarama-qarshiliklar, qurolli to'qnashuvlar tobora avj olib bormoqda. Oldimizda yangi-yangi muammolar paydo bo'lmoqda. Hozirgi o'ta murakkab va tahlikali vaziyatda barchamiz yanada birlashishimiz kerak. Tanlagan yo'limizdan qat'iy o'lga borishimiz zarurligini asrlar davomida ko'plab og'ir sinov va mashaqqatlardan munosib o'tgan mard va donishmand xalqimiz albatta yaxshi tushunadi. Aminmanki, O'zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasi biz uchun bu yo'lda ulkan ishonch, kuch-g'ayrat va ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi", dedi davlatimiz rahbari o'z tabrigida.

Darhaqiqat, bugun dunyo notinch. Insoniyatga har kuni yangi xavf-xatarlar tahdid solmoqda. Bunday vaziyatda har bir davlat va xalqning o'z tanlagan yo'li hamda qat'iy pozitsiyasi bo'lishi kerak. Bu borada asosiy ijodkori xalqimiz bo'lgan yangilangan Konstitutsiyamiz barchamizga jo'shqin qudrat bag'ishlab turishi, shubhasiz.

Bugun biz 8-dekabr sanasini ilk bor yangi tahrirda qabul qilgan Konstitutsiyamiz ruhi bilan nishonlar ekanimiz, bu bayram siyosiy yetukligimiz, ijtimoiy intilishlarimiz, iqtisodiy yuksalishimiz, ma'naviy-ma'rifiy salohiyatimiz, umuman olganda, dunyoda hech kimdan kam emasligimiz, balki qudratli xalq ekanimiz, o'zaro yangilangan tahrirdagi uchrashuvlarimiz bayramidir.

E'tiborlisi, yangi O'zbekiston bugun dunyoga o'zining tarixiy asosli pozitsiyasi bilan qayta tanilmoqda. Buni Prezidentimizning nufuzli minbarlarda turib bildirayotgan xalqaro miqyosdagi tashabbuslari, bugungi kun va kelajak uchun ahamiyati dolzarb bo'lgan fikr-mulohazalari hamda tashqi siyosatimizning bag'rikenglik, teng manfaatlilik prinsiplariga asoslanganida ham ko'rishimiz mumkin.



Endilikda bu boradagi sa'y-harakatlarimiz yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz bilan mustahkam siyosiy-huquqiy tus oldi. Unga ko'ra, O'zbekistonning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning buzilmasligi, davlatlarning hududiy yaxilligi, nizolarni tinch

O'zbekiston tog'lari:

ULKAN BOYLIK VA BARQARORLIK KAFOLATI



Turob JUMAYEV,
geografiya fanlari doktori,
iqtisodiyot fanlari nomzodi,
professor

O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojida ham tog'larning o'ri va ahamiyati juda yuqori. Ular asosiy ekologik-iqtisodiy makromintaqa va tabiat (ekologik) infratuzilmasi, ulkan milliy boylikdir. Eng muhimi, tog'lar yaqqol ifodalangan muhit shakllantiruvchi va nazorat qilish funksiyasiga ega bo'lib, ekologik muvozanatni qo'llab-quvvatlaydi hamda ekologik-iqtisodiy vaziyatni barqarorlashtiradi.

Boyluk manbayiga e'tibor zarur

Tekisliklar aholisi tog'larning boy resursiga hayotiy ehtiyoj sezadi. Ya'ni ularning farovonligi ko'p jihatdan tog'larga bog'liq. Xususan, tog'lar, avvalo, daryo suvlari manbai sifatida qadri. O'zbekiston tog'larida uzunligi 10 kilometrdan ortiq 655 ta daryo bo'lib, ularda yiliga 10-11 kilometr kub suv shakllanadi. Bu suvga bo'lgan ehtiyojimizning beshdan bir qismi, degani.

Mamlakatimizning ulkan milliy boyligi, bebaho kapitali va katta "ko'chmas" mulki — tog'larning umumiy maydoni 96 ming kilometr kvadrat, maydoni kattaligi bo'yicha Shveysariya, Armaniston, Makedoniya kabi togli davlatlarning birgalikdagi hududiga teng. Tog' O'zbekiston hududining 21,4 foizini egallaydi, 12,7 foiz aholi tog'li hududlarda yashaydi. Sanoat mahsulotlarining 15-16 foizi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 12-13 foizi ham tog'lar hissasiga to'g'ri keladi. Bundan tashqari, tog'lar katta hajmli rekreatsiya va landshaft resurslariga ega.

UNESCOning xalqaro tog'lar klassifikatsiyasida O'zbekiston tog'li davlatlar guruhi kiritilgan. Yurtimizdagi 72 tuman hududida tog' mavjud, ularning 16 tasi (10 foizi) tog', 56 tasi (35 foizi) tekislik-tog' tumanlari hisoblanadi. Bu juda katta boyluk va imkoniyat. Lekin jamiyatda nimagadir O'zbekiston tog'li mamlakat, deya qabul qilinmaydi. Shuningdek, umumdavlat darajasida ham "tog' xususiyati"ni tushunish mavjud emas.

Tabiat, aholi va xo'jalikning balandlik zonaligi (past, o'rta va baland tog' zonalari), "tog'ligi", tog' mintaqalari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining o'ziga xosligini amaliyotda hisobga olmaslik va ularni sug'oriladigan tekis vodiy hamda vohalarga "tenglashtirish" davom etmoqda. Bugun davlat

“ O'TGAN DAVRDA DUNYONING KO'P MAMLAKATLARI MAZKUR TAVSIYALARNI RO'YOBGA CHIQRIB, TOG' HUDUDLARI BARQAROR RIVOJLANISHI BO'YICHA KATTA MUVAFFAQIYATGA ERISHDI. AFSUSKI, O'ZBEKISTONDA BUNGA YETARLICH A E'TIBOR BERILMADI. VAHOLANKI, XX ASR OXIRI VA XXI ASR BOSHLARIDA TOG' NAZARIYASI VA AMALIYOTI BO'YICHA YANGI FAN — MONTOLOGIYA (TOG'SHUNOSLIK) SHAKLLANIB, HOZIR JADAL RIVOJLANMOQDA. MONTOLOGIYA TABIAT, IJTIMOYIY, IQTISODIY, SIYOSIY VA MADANIYAT KOMPLEMENTLARINI ICHIGA OLGAN FANLARARO, MINTAQALARARO, TARMOQLARARO FAN YO'NALISHIDIR.



Tog'dan go'zal va yaxshi joy faqat tog' bo'ladi, deyishadi. Chindan ham, tog' nafaqat chiroyli, balki ulkan boyluklar manbai hamdir. Qurulqning 25 foizini egallaydigan bu joylarda dunyo aholisining 12 foizi doimiy yashaydi. Shu jihatdan olganda, tog'larni asrash, boyluklarini to'g'ri tasarruf etish juda muhim. Ayni shu maqsadda 2022-yil 15-noyabrda BMT Bosh Assambleyasida dunyoning 22 davlati, jumladan, O'zbekiston tashabbusi bilan "Tog' mintaqalarining barqaror rivojlanishi bo'yicha harakatlar besh yilligi" rezolyutsiyasi qabul qilindi.

tuzilmasida tog' mintaqalari rivojlanishiga mas'ul birorta idora mavjud emas. Milliy tog' siyosati ishlab chiqilmagan. Ayni paytda shuni doim hisobga olish kerakki, tog' va tog' landshaftlarini mamlakatning noyob ekotizimi sifatida boshqa hech narsa bilan alishtirib bo'lmaydi. Shu bilan birga, ular mo'rt va beqaror, antropogen ta'sirga chidamsiz va tez o'zgaruvchidir.

Nomaqbul xo'jalik yuritish ta'sirida ko'p holatlarda tog' tabiatining kuchli yemirilishi va ifloslanishi sodir bo'lgan. Afsuski, bu jarayon hamon davom etayotir. Ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy muvozanat beqarorligi kuchaymoqda.

O'tmish saboqlari: oqibatni yumshatish yo'llari

Uzoq davom etgan mustamlakachilik davrida tog' resurslaridan ayovsiz va shafqatsiz foydalanish dahshatli oqibatlariga olib keldi.

Ma'lumotlarga ko'ra, 1850-yillarda O'zbekiston tog'larning o'rmon qoplamini 50 foizgacha bo'lgan. Ularning pastki chegarasi dengiz sathidan 700-800 metr gacha tushgan. Adirlar yoppasiga bodom va pistazorlardan tashkil topgan. 1990-yilga kelib, o'rmon qoplamini 2 foizgacha kamaygan, pastki chegaralar 1500-1600 metr gacha ko'tarilgan, adirlar o'rmonsiz bo'sh joyga aylangan. Ushbu davrda yillik yog'in miqdori 800-900 millimetrdan 350-400 millimetrgacha (2-2,6-marta) ozaygan, sel hosil bo'lishi keskin oshgan, tog' daryolari soni 6-10 karra qisqargan.

Hozir ham iqlim o'zgarishi va salbiy antropogen ta'sir oqibatida mazkur jarayon davom etmoqda. Masalan, Markaziy Osiyo tog'larida muzliklar maydoni so'nggi 50-60 yilda 30 foiz kamaydi. Prognozlariga qaraganda, 2050-yilga borib, suv resurslari Sirdaryoda 5 foiz, Amudaryoda 15 foizgacha qisqaradi. Bu raqamlar e'tiborni tortmasdan qolmaydi, albatta. Shu bois, Prezidentimiz yaqinda Ozarbayjonning Boku shahrida BMTning Markaziy Osiyo iqtisodiyoti uchun maxsus dasturi — SPEKA sammitidagi nutqida ushbu masalaga alohida to'xtalib, suv taqchilligi mintaqalardagi har yili 2 milliard dollargacha mablag' yo'qotishga sabab bo'layotgani, muammolar kompleks hal etilmasa, kelgusida aholi jon boshiga suv bilan ta'minlash ko'rsatkichi 25 foiz, hosildorlik esa 40 foiz qisqarib ketishi mumkinligini ta'kidladi.

Shunday ekan, nima qilmoq kerak?

Fikrimizcha, kamchilik va muammolar yechimida "Yashil makon" umummilliy loyihasi qo'l keladi. Ya'ni ushbu loyiha orqali o'rmon qoplamining me'yoriy mezonni 50 foizga yetkazilishi o'rmonlardagi yog'in-garchilikni kamida 10 foiz oshiradi. Chunki yashilik yog'in-garchilikni chaqiradi.



Tog' bog'lari va tokzorlari ham o'rmon kabi vazifani bajaradi.

Shuningdek, ma'muriy-hududiy bo'linish va ularni takomillashtirish ham yaxshi samara berishi mumkin. Gap shundaki, mamlakatimiz, jumladan, tog' zonasining ma'muriy-hududiy bo'linishi dastlab 97 yil oldin amalga oshirilgan, unda hozirgi vaqtda tog'larida mavjud 72 ta tumanidan 46 tasi (63,8 foizi), xususan, 16 ta tog' tumanining 8 tasi (50 foizi), 56 ta tekislik-tog' tumanining 38 tasi (67,9 foizi) tuzilgan. Mustaqillik yillarida faqat bitta kichik tog' tumani (Yangiobod) va kichik Buloqbo'shi tekislik-tog' tumani tuzilgan. Shunday qilib, ilgari shakllangan tumanlar tizimi amalda deyarli o'zgarishsiz qolgan.

O'zbekistonni sobiq ittifoqning asosiy paxta bazasiga aylantirish jarayonida barcha tog' hududlarining deyarli yarmi (48 foizi) paxta yetishtiruvchi tekislik tumanlariga "bo'lib" berildi. Shu asosda 56 ta tekislik-tog' tumani shakllantirildi. Oqibatda tog' hududlari ma'muriy-hududiy, xo'jalik-moliyaviy mustaqilligini yo'qotdi. Ular bo'yicha maxsus buxgalleriya va statistika hisobotlari yuritilmadi. Haqiqiy holat haqida hozirgacha ishonchli axborotga ega emasiz. Mazkur tumanlar bir-biridan ko'plab ko'rsatkichlar bo'yicha katta farq qiladigan sun'iy tuzilmalar bo'lib qolmoqda.

Shuning uchun tekislik-tog' tumanlari o'zgartirilishi, ya'ni sug'oriladigan tekislik va tog' tumanlarining yangi tizimi tashkil etilishi, tog' xo'jaliklari shakllantirilishi hamda tog' tumanlarini optimallashtirish zarur, deb o'ylaymiz.

Tog' hududlarini o'zlashtirish va rivojlantirish amaliyotida tarmoq modeli ustun bo'lib, ular resurslar degradatsiyasi va iqtisodiy rivojlanishda hududiy-balandlik zonal nomuvofiqligiga olib kelgan. Kompleks integral yondashuv mavjud bo'lmagan va qo'llanilmagan. Bu holat mintaqalar aholisi, xo'jaligi, tabiat muhofazasi, infratuzilmani boshqarishda ularni o'zaro bog'liq yagona subyekti sifatida hisobga olishga imkon bermagan. Tarmoqlar o'rtasida integratsiya amalga oshirilmagan. Faqat ayrim holatlarda 2-3 komponentli modellarga asoslangan oddiy rivojlanish sxemasi amalga oshirilgan: gidroenergetika — irrigatsiya; resurslarni qazib olish — transport infratuzilmasini rivojlantirish; mineral suvlar — rekreatsiya va boshqalar.

Bu kamchiliklarni bartaraf etish quyidagi g'oyat muhim ikki yo'nalishni amalga oshirishga bog'liq: birinchisi, barqaror tog' rivojlanishiga o'tish; ikkinchisi, yangi tog' ijtimoiy-iqtisodiy kompleksini barpo etish.

Keyingi yillarda barqaror tog' rivojlanishida muhim o'zgarish hamda siljilash kuzatilmoqda. Xususan, 2016-2023-yillarda Prezidentimizning qator farmon va qarorlari qabul qilinib, amaliyotga joriy etilmoqda. Pirovardida, tog' zonasi iqtisodiyoti tarmoqlari takomillashtirilib, ko'mir, gidroenergetika, tog'-kon, rangli metallurgiya, qurilish materiallari, agrosanoatni rivojlantirish asosida tog' zonasi sanoatlashirilayapti, tog' qishloq xo'jaligi modernizatsiyalashtirilib, diversifikatsiya qilinmoqda. Tog'li zonalar davlat tomonidan tartibga solinib, qo'llab-quvvatlanayapti. Tog' tumanlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga So'x, turizm-rekreatsiya zonasiga aylantirishga

Bo'stonliq, tekislik-tog' tumanlarini chuqur ixtisoslashtirishga Kosonsoy, Chortoq, Yangiqo'rg'on, tekislik-tog' tumanlari tog' hududlarini alohida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning yangi yo'nalishiga Uzun tumani Bobotog' hududi, iqtisodiyotning yangi yo'nalishlarini barpo etishga "Angren", "Urgut", "Chiroqchi", "Chorvoq" turizm iqtisodiy zonasi, "Bo'stonliq-Farm", "Parkent-Farm", "Zomin-Farm", "Boysun-Farm" maxsus hududlarini misol keltirsa bo'ladi. Bundan

eng muhim global vazifalardan biri sifatida belgilab olingani, barcha a'zo davlatlar barqaror tog' rivojlanishini amalga oshirishga hissa qo'shishi muhimligi ko'rsatilgani diqqatga sazovor.

Bu borada muayyan natijalarga erishilayotgani esa yanada e'tiborli. Xususan, bugungi kunda Yevropa Ittifoqi davlatlarida ushbu yo'nalishda milliy dasturlar mavjud. Ular tog'larini qo'llab-quvvatlaydigan tizimli huquqiy normalar, davlat dasturlari va institutlarga ega. Pokiston, Hindiston, Xitoy, Nepal, Butan, Myanma, Boliviya, Panama, Ekvador kabi davlatlarda esa o'ziga xos modellar amalga oshirilmoqda. Biroq MDH a'zolarining birortasi, jumladan, O'zbekistonda tog' mintaqalarining barqaror rivojlanishi bo'yicha aniq dastur yo'q. Jamiyat tog'lar rivojlanishining real muammolari bo'yicha obektiv axborotga ega emas. Shu bilan birga, MDH Parlamentlararo Assambleyasi tog' mintaqalari rivojlanishining alohida umumdavlat miqyosida maxsus hal etishni talab qiladigan muammo ekanini e'tirof etib, 2020-yil 27-noyabrda "Model qonuni. Tog' hududlari rivojlanishi va muhofazasi to'g'risida"gi qonunni qabul qildi.

Shularni inobatga olgan holda, O'zbekistonda quyidagi yo'nalishlarni amalga oshirish zarur, deb hisoblaymiz.

Birinchidan, o'tmishda shakllangan va salbiy oqibatlarga olib kelgan rivojlanish yo'nalishlarini bartaraf etishda ilg'or mamlakatlar tajribasidan amaliyotda foydalanish.

Ikkinchidan, MDHning "Model qonuni. Tog' hududlari rivojlanishi va muhofazasi to'g'risida"gi qonuni asosida O'zbekistonda tog' hududlari rivojlanishi va muhofazasi to'g'risida yangi qonun qabul qilish va uni amalga oshirish.

Uchinchidan, BMT Bosh Assambleyasining "Tog' mintaqalarining barqaror rivojlanishi bo'yicha harakatlar besh yilligi" rezolyutsiyasini amalga oshirishga faol kirishish.

Uchinchidan, BMT Bosh Assambleyasining "Tog' mintaqalarining barqaror rivojlanishi bo'yicha harakatlar besh yilligi" rezolyutsiyasini amalga oshirishga faol kirishish.



To'rtinchidan, 2023-yil 12-13-oktabrda MDH Parlamentlararo Assambleyasi Sankt-Peterburgda tog' hududlari barqaror rivojiga bag'ishlab tashkil etgan xalqaro forumda qabul qilingan rezolyutsiyani hayotga tatbiq etish zarur.

Umuman, ushbu yo'nalishda asosiy muammo nimada? Bizningcha, bular sirasiga milliy tog' siyosati mavjud emasligi, "tog'-tekislik" va "tekislik-tog'" tizimlari o'rnatilgan o'zaro munosabatlar tartibga solinmagani, yangi tog' kompleksi shakllanishi tugallanmagani, tog' dasturi ishlab chiqilmaganidir.

Milliy tog' siyosati bu borada yagona davlat siyosatini yuritishga asos hisoblanadi. U barqaror tog' rivojlanishini davlatning tartibga solishi va qo'llab-quvvatlashi yo'nalishlarini belgilab beradi va tog' to'g'risidagi fanlarning eng so'nggi yutuqlariga tayandir.

"Tog'-tekislik" va "tekislik-tog'" tizimlari o'zaro ta'siri va aloqalarini hududiy-balandlik zonal boshqarishning takomillashtirilishi ham dolzarb. Ya'ni muammolar yechimining maqsadga muvofiqligi va samaradorligi ko'p jihatdan obyekt (tog') ning boshqarish subyektiga (tuman, xo'jalik) mos kelishini quyidagi yo'nalishlarda ta'minlash va tartibga solish maqsadga muvofiq:

— tekislik-tog' tumanlari to'rini (tizimini) qayta qurish va tog' tumanlari to'rini optimallashtirish;

— O'zbekistonning yagona tog' makonini shakllantirish va rivojlantirish;

— tog' zonasi O'zbekistonning muho-faza etiladigan asosiy tabiiy hududiga aylantirish (tog' hududlariga alohida ma-qom berish);

— "tog'lar uchun to'lovlar"ni amalga oshirish, muho-faza va tog' barqaror rivojlanishini moliyalashtirish, resurslardan foydalanishga asoslangan faoliyat daromadining

katta qismini bevosita o'sha hududlarga yo'naltirish va boshqalar.

Hozirgi kunda rivojlangan davlatlarda tog'larni o'zlashtirishda zamonaviy ilm-fan yutuqlariga asoslangan landshaftni rejalashtirish amaliyoti ommalashgan. Ularda madaniy landshaftlar tabiat landshaftlariga nisbatan ancha ustun mavqegaga ega. Chunki madaniy landshaftlar tabiiylariga nisbatan sarmahsul, serdaromad va maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mamlakatimizda ham bu borada dastlabki qadamlar qo'yilmoqda. Ular olimlar, amaliyotchilar, mahalliy aholi hamkorligida barpo etiladi. Mazkur yo'nalishda Shveysariya katta tajribaga ega. Bu yerda hatto madaniy landshaftlardan sertifikatlangan landshaft brendlariga o'tish ancha taraqqiy etgan.

Ekologik innovatsiya, texnologiya, klaster usuliga asoslangan yangi ijtimoiy-iqtisodiy tog' kompleksini shakllantirish va rivojlantirish ham ancha samarali. Bu orqali tabiat va jamiyat o'rnatilgan o'zaro munosabatlarni noosfera yo'nalishida tubdan o'zgartirish hamda muvozanatlangan munosabatlarni o'rnatishga erishiladi. Unga asoslanib asta-sekin rivojlanishning resurslarisiz ("yashil" iqtisodiyot) tizimiga mos yo'nalishga o'tish, tegishli infratuzilma, zamonaviy aholi yashash punktlari tizimi barpo etiladi.

Manzilli tog' dasturi ishlab chiqilishi ham muammolar yechimida katta ahamiyatga molik. Mazkur dastur loyihasidan Prezidentimizning 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonida belgilangan ikkita yangi tartib, ya'ni har yili barcha tuman va shaharlar kesimida ishlab chiqiladigan kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda, shuningdek, Mo'ynoq tumanida maxsus soliq o'rnatish tajribasi asosida sharoiti og'ir bo'lgan tumanlarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qo'shimcha qulayliklar yaratishda

nazariy-metodologik asos sifatida foydalanish mumkin. Birinchi yangi tartibda tog' tumanlari va tekislik-tog' tumanlari, tog' hududlari (shaharacha, qishloq, mahalla) alohida hisobga olinib, ular bo'yicha yillik tog' dasturlari ishlab chiqiladi. Ikkinchi yangi tartib "og'ir" hududlarni aniqlashda barcha tog' va tekislik-tog' tumanlarining tog' hududlari "og'ir" tumanlar va hududlar ro'yxatiga kiritilishi zarur. Ushbu dasturning amalga oshirilishi tog' hududlarini yurtimizning iqtisodiy istiqbolli qismiga aylantirishda qo'l keladi.

Yana bu borada milliy tog' siyosati va doiraviy qonunchilik hujjatlarini paketini ishlab chiqirish, Oliy Majlis Qonunchilik palatasida "O'zbekistonning tog' mintaqalari: rivojlanishining hozirgi holati, huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy jihatlar" mavzusida parlament ehituvlarini o'tkazish, Fanlar akademiyasiga manfaatdor vazirlik va idoralardan birgalikda "O'zbekistonning tog' mintaqalari: holati va muammolari" milliy ma'ruzasini tayyorlashni topshirish, akademiya tarkibida O'zbekistonning cho'l, sug'oriladigan tekislik vodiy va vohalari, tog'oldi-tog' hududlarini kompleks o'rganishga ixtisoslashgan Geografiya ilmiy-tadqiqot institutini, uning tarkibida Tog' markazini ilg'or xorijiy tajriba asosida tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Vaholanki, bu kabi ilm dargohlari ko'p davlatlarda mavjud.

Biz yuqorida bayon qilgan yo'nalishlar, fikrlar orqali mamlakat boyligi manzillari bo'lmish tog'larning afzallik va ustunliklarini ko'rsatish, ularning hayotimizdagi ahamiyatini ochib berishga intiladi.

Yurtimizning ulug'vor tog'lari biologik va landshaft xilma-xilligining muhim makoniga, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish, turizm va rekreatsiya, qayta tiklanuvchi energiyani katta markazga, ekologik yo'naltirilgan tog' dehqonchiligi, chorvachiligi, umuman, "yashil" iqtisodiyotning muhim mintaqasiga aylanishi mumkin.

8-DEKABR — O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI KUNI

Har bir davlat o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘lini tanlar ekan, xalq farovonligini ta‘minlashga xizmat qiladigan eng muhim maqsad va vazifalarini o‘zining Konstitutsiyasi — Asosiy qonunida mustahkamlab oladi. Binobarin, o‘z xalqining xohish-irodasi, dili va tilidagi ezgu niyatlariga hamohang Konstitutsiyaga ega bo‘lgan mamlakat o‘zi belgilagan yuksak marralardan hech qachon og‘ishmasdan, doimo oldinga qarab boradi.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti



Konstitutsiyaviy tamoyil:

BARCHA NOANIQLIKLAR — INSON FOYDASIGA

Yurtimizdagi o‘zgarishlar shabdasida xalqimizga chinakam erk berdi, qadrini yuksakka ko‘tardi. Islohotlar markazida inson turgani, qolgan barcha yangilanishlar mana shu oliy qadriyat — inson omili atrofida kechgani bugungi siyosatning ezgu va xalqparvar ekanini ta‘minladi.

Alisher MO‘MINOV,
siyosiy fanlar doktori,
professor

So‘nggi yillarda xalqimiz yangi ulug‘vor marralar sari sobit qadamlar tashlaganicha barcha to‘siq va qiyinchiliklarni yengib o‘tib, mohiyatan bir-birini taqozo etuvchi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy sohalaridagi izchil islohotlarni amalga oshirmoqda. Bugun yangi O‘zbekiston demokratik tamoyillar, inson huquq va erkinliklari borasida umume‘tirof etilgan qoidalarga asoslangan, bosh maqsadi xalq uchun erkin, obod hamda farovon hayot yaratib berishdan iborat bo‘lgan davlatga aylandi.

Shunday ezgu maqsadlardan biri aholining keng qatlami va saylovchilar xohish-irodasi bo‘lmish konstitutsiyaviy islohotlarni amalga oshirishdan iborat bo‘ladi. Negaki, davlat va jamiyatda tub o‘zgarishlar ro‘y berayotgan bir paytda tabiiy ravishda Konstitutsiyaga jiddiy o‘zgartirishlar kiritish taqozo etiladi. Zero, har qanday demokratik islohotlar chin ma‘noda xalqchil konstitutsiyaviy asosga ega bo‘lsagina, yanada bardavom bo‘ladi, ko‘zlangan ezgu maqsadlarga erishadi.



Bugun O‘zbekistonda kechayotgan yangilanishlar mazkur jihatlari bilan ham ko‘pchilikning qiziqishiga, havasiga sabab bo‘layotgani ayni haqiqat.

Davlatimiz rahbarining 2022-yil nihoyasida Oliy Majlis va xalqimizga yo‘llagan Murojaatnomasida “Jonajon O‘zbekistonimiz milliy rivojlanishning yangi davriga dadil qadam qo‘ymoqda. Hayotimizning barcha jabhalarida ulkan o‘zgarishlar yuz bermoqda. Aholimiz 36 milliondan oshdi. Har yili safimizga qariyb 900 ming yangi avlod qo‘shilmoqda. O‘zbekiston deb atalmish katta va inoq oilaning har bir a‘zosi tinch va farovon hayot kechirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish yo‘lida tinimsiz izlanaymiz. Yakuniga yetayotgan 2022-yil g‘oyat murakkab va sinovli yil bo‘ladi, desam har tomonlama to‘g‘ri bo‘ladi. Ushbu davrda to‘plagan tajribamiz bir haqiqatni yaqqol isbotlab bermoqda: taraqqiyotga — faqat mashaqqatli va jasoratli mehnat orqali erishiladi”, deb aytgan gaplarida ulkan ma‘no mujassam.

Joriy yilning “Insonga e‘tibor va sifati ta‘lim yili” deb e‘lon qilinganidan ham bilish mumkinki, yurtimizda insonga e‘tibor tobora ortib bormoqda. O‘zbekistonda yuritilayotgan davlat siyosati markazida inson va uning manfaatlarini ta‘minlash ustuvor vazifa etib belgilandi. Bu siyosat bir yil bilan cheklanib qolmasligi, doimo bardavom bo‘lishi ayon. Chunki yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz mohiyatida

inson qadri ulug‘lanishi bosh tamoyilga aylangan.

Konstitutsiya nega yangilandi? Dunyo davlatlari tajribasidan ham ma‘lumki, konstitutsiyaviy islohotlar har bir davr taqozo qiluvchi jarayondir. Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 6-noyabr kuni inaguratsiya marosimida nutqida Konstitutsiya islohoti haqida aytgan edi. Davlatimiz rahbari o‘sha yili dekabr oyida, Konstitutsiya kuni arafasida xalqimizga yo‘llagan tabrigida “Konstitutsiyani yangilashdek g‘oyat muhim, strategik vazifani hal etishda yetti marta emas, yetmish marta o‘ylash” zarurligini ta‘kidlagandi. 2022-yil may oyida konstitutsiyaviy komissiya tuzilib, hujjatni yangilash jarayoni boshlandi.

Konstitutsiya matni olimlar yoki mutaxassislar tomonidan kabinetlarda o‘tirib yozilmadi. Avval xalqimizning fikri, takliflari ikki bosqichda o‘rganildi, shundan so‘ng Konstitutsiya loyihasi tayyorlandi. Avvallari Konstitutsiya qabul qilishda dastlab loyiha ishlab chiqilib, keyin xalq muhokamasiga qo‘yilgan. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya taraqqiyotga e‘tibor — yangi O‘zbekistonda qurish g‘oyasi atrofida butun jamiyatimizni jipslashtiradi. Bu esa hujjat tom ma‘noda xalq Konstitutsiyasi bo‘lganidan dalolatdir.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartirish va o‘shimchalar kiritish to‘g‘risida gi konstitutsiyaviy qonun loyihasi umumxalq muhokamasi uchun qo‘yildi. Buning uchun “Meningkonstitutsiyam.uz” platformasi, @meningkonstitutsiyam_bot telegram boti ishga tushirildi. Muhokamalar jarayonida aholimizdan jami 220 mingdan ziyod taklif kelib tushgan. Bosh qonunimizning 65 foiz matni xalqimiz takliflari asosida yangilandi. Inson huquqlariga oid normalar 3 barobardan ortiqqa oshdi. 1992-yildan buyon Konstitutsiyaga jami 15 marta o‘zgartirish kiritilgan edi. Bu safar esa o‘zgarishlar ko‘lami kattaligi sabab hujjatning yangi tahriri qabul qilindi. Yangilanish natijasida Bosh qonundagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi. Umuman, Konstitutsiya 65 foiz yangilandi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada eng muhim o‘nita yo‘nalishda ro‘y bergan o‘zgarishlar quyidagilardir: O‘zbekiston — huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat, Konstitutsiya to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi,



imtiyozlar qonunda yozib qo‘yilishi shart emas, barcha noaniqliklar — inson foydasiga, inson huquqlari ijtimoiy axloq va jamoat tartibini saqlash maqsadida cheklanishi mumkin, o‘qituvchilar alohida e‘tirofda, yer xususiy mulk bo‘lishi mumkin, OAV faoliyatiga to‘sqinlik qilish javobgarlikka sabab bo‘ladi, davlat boshqaruvdagi, mahalliy davlat hokimiyatidagi o‘zgarishlar, hokimlar kengash raisligidan ketadi.

Konstitutsiyaga boshqa ko‘plab normalar ham qo‘shilgan. Jumladan: O‘zbekistonda o‘lim jazosi taqiqlanadi, agar shaxsning o‘z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo‘lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emas, qonunni buzgan holda olingan dalillardan odil sudlovni amalga oshirish chog‘ida foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi, har kim o‘z shaxsiga doir noto‘g‘ri ma‘lumotlarning tuzatilishini, o‘zi to‘g‘risida qonunga xilof yo‘l bilan to‘plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo‘lmay qolgan ma‘lumotlarning yo‘q qilinishini talab qilish huquqiga ega, davlat internet jahan axborot tarmog‘idan foydalanishni ta‘minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Konstitutsiyaviy islohotlarda jamoatchilik, xususan, fuqarolik jamiyati institutlari ishtiroki — chinakam xalq Konstitutsiyasi garovi. Negaki, “inson — jamiyat — davlat” konstitutsiyaviy tamoyilini amalga oshirish adolati va ochiq fuqarolik jamiyatining konstitutsi-

viy-huquqiy asoslarini mustahkamlash, uning institutlari roli va mavqei oshirish bilan uzviy bog‘liqdir.

Ijtimoiy davlat, bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag‘allikni qisqartirish, demakdir. Shu bois, birinchi navbatda, e‘tibor yangi O‘zbekiston uchun eng katta investitsiya bo‘lgan ta‘limni ko‘llab-quvvatlashga qaratilmoqda.

“Najot — ta‘limda, najot — tarbiyada, najot — bilimda. Chunki barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi”. Ma‘rifatparvar jaded bobomizning bu so‘zlari deputat va senatorlarimiz, siyosiy partiyalar, mahalliy kengashlar, butun davlat apparati, keng jamoatchilikning amaliy harakatiga aylangan. Shu bois, maktablarda ta‘lim sifati hamda jamiyatda o‘qituvchi kasbi nufuzini oshirish, muallimlar sharoitlarini yaxshilash 2023-yildagi eng asosiy vazifalarimizdan biri bo‘ladi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga o‘qituvchilar haqida modda qo‘shildi. U ikki bandedan iborat: “O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma‘naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda bo‘yitishning asosi sifatida e‘tirof etiladi.

Davlat o‘qituvchilarning sha‘ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning

ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘shishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi”.

Shu tariqa, ustozlar huquq sohasi vakili bo‘lmagan, lekin oliy qonunda alohida tilga olingan yagona kasb egalari ga aylandi.

Mamlakatimiz siyosiy hayotidagi muhim voqealar, xususan, yangilangan Konstitutsiyamiz qabul qilinishi el-yurtimiz yangi O‘zbekistonni, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga qaratilgan islohotlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlab kelayotganini yana bir bor tasdiqladi.

Ayniqsa, iqtisodiyot tarmoqlarini jadal rivojlantirish va tadbirkorlikka keng yo‘l ochish, yangi ish o‘rinlari yaratish, kambag‘allikni qisqartirish hamda aholining turmush farovonligini oshirish, tibbiy xizmatlar va ta‘lim sifati jahon standartlariga moslashtirish, shahar va qishloqlarimizni obod qilish, yurtimizning xalqaro miqyosdagi obro‘-e‘tiborini yuksaltirish yo‘lida erishayotgan natijalarimiz tobora yaqqol namoyon bo‘lmoqda, ularni har bir yurtdoshimiz o‘z hayotida sezmoqda, his etmoqda.

Dunyodagi murakkab siyosiy-iqtisodiy vaziyatga qaramay, islohotlarni izchil davom ettirib, yangi bosqichga olib chiqishda biz uchun barcha yutuqlarimiz omili, kuch-g‘ayrat, g‘urur va ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladigan yangi Konstitutsiya yurtimizning bugungi taraqqiyot darajasi, shon-u shuhratiga mos ulkan ishlariga poydevor bo‘luvchi Bosh qonundir. U O‘zbekiston jamiyatining evolyutsion rivojlanishidan kelib chiqayotgan hayotiy zaruratdir.

Konstitutsiyaning yangi tahririga asosan, inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi, ijtimoiy munosabatlar cheksiz shakllarga ega, ularni normativ-huquqiy hujjatlarda to‘liq kodifikatsiya qilib chiqish amalda imkonsiz, endilikda qonunchilikda aniq belgilab qo‘yilmagan masalalarda ziddiyat yuzaga kelsa, masala davlat emas, inson foydasiga hal etiladi. Bundan tashqari, turli hujjatlarni yuritishda davlat organlari tomonidan xato-kamchilik o‘tgan taqdirda, masalan, pensiya tayinlashda tegishli hujjatlar bazadan topilmay, noaniqlik yuzaga kelganida ham vaziyat fuqaro foydasiga hal etilishi kerak. Konstitutsiyaning yangi tahriri inson omili eng muhim masala ekanidan dalolat beradi.

Darhaqiqat, inson qadri ulug‘langan yurtning kelajagi ham buyuk bo‘ladi. Bu yangi O‘zbekistonning Konstitutsiyasida belgilangan eng muhim me‘yorlardir. Prezidentimiz ta‘kidlaganidek, “Aynan shu sababli Konstitutsiyamizni ehtirof bilan ulug‘lashimiz, har tomonlama o‘rganishimiz, unga izchil amal qilishimiz, Asosiy qonunimizda mujassam bo‘lgan ajdodlarimizning buyuk merosi va umuminsoniy qadriyatlarini yoshlarimiz qalbiga singdirishimiz zarur”.



Buxoro va Urganchdagi xalqaro aeroportlarni rekonstruksiya va davlat-xususiy sheriklik tamoyili asosida modernizatsiyalash, Surxondaryo viloyatida yangi puli tunnel hamda Toshkent — Samarqand yangi alohida tezayur temir yo‘li qurilishi loyihalari shular jumlasidan.

Geosiyosiy voqealar tufayli Sharq-G‘arb yo‘nalishida hamda Janubiy va Janubi-sharqiy Osiyo mintaqasi mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli yo‘nalishlarni diversifikatsiya qilish ham bugunning dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Bu yo‘nalishlarda yer va multimodal yo‘laklar salohiyatidan yanada samarali foydalanish uchun global uzluksiz yetkazib berish zarurini yaratuvchi yagona transport tarmog‘ini shakllantirishni yakunlash zarur.

Shu bois, britaniyalik investorlarga O‘zbekiston — Afg‘oniston — Pokiston va Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston temir yo‘llarini qurish bo‘yicha xalqaro loyihalarni amalga oshirishda hamkorlik taklif etildi.

Bu loyihalar amaldagi xalqaro transport yo‘laklari samaradorligini oshirish va yangi xalqaro transport yo‘laklarini shakllantirish, yangi bozorlarga chiqish, yo‘nalishlarni diversifikatsiya qilish va tashish geografiyasini kengaytirish, shuningdek, qo‘shimcha tranzit hajmini jalb etish imkonini berishi bilan ahamiyatlidir.

Tadbir yakunida O‘zbekiston — Buyuk Britaniya iqtisodiy, savdo va investitsiyaviy aloqalarini yanada kengaytirish bo‘yicha qo‘shma “Yo‘l xaritasi” hamda uchrashuvlar davomida erishilgan natijalarni amalga oshirish bo‘yicha qator kelishuv va memorandumlar imzolandi.

XALQARO HAMKORLIK

O‘ZBEKISTON — BRITANIYA KENGASHI

iqtisodiy aloqalarning yangi ufqi tomon yo‘l ochmoqda

Muhiddin KALONOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mamlakatimiz tashqi siyosiy strategiyasi xorijiy davlatlar bilan savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, xorijiy investitsiyalar, ilg‘or texnologiyalarni ishlab chiqarishga jalb etish, mahalliy eksport geografiasini kengaytirish sohasida yangi qirralarni ochdi. Natijada yurtimizga bevosita xorijiy investitsiyalar oqimi o‘sdi, ularning hajmi yildan-yilga ortib borayotir.

O‘zbekiston — Britaniya savdo va sanoat kengashi (UBTIC) yig‘ilishi bu yo‘ldagi samarali tadbirlardan biridir. Navbatdagi yig‘ilish yaqinda London shahrida bo‘lib o‘tdi.

Har yili UBTIC doirasida O‘zbekiston va Buyuk Britaniyaning hukumat vakillari, biznes rahbarlari aloqa o‘rnatish hamda ikki tomonlama savdoni muhokama qilish uchun bir joyga to‘planadi. Bu gal ham yig‘ilishda tegishli vazirlik va idoralar, tarmoq birlashmalari, banklar, shuningdek, diplomatik missiyalar rahbarlari, ishbilarmon doira vakillari, soha ekspertlari ishtirok etdi. 1994-yilda O‘zbekiston va Buyuk Britaniya hukumatlari tomonidan tashkil etilgan, har yili o‘tkaziladigan UBTIC ikki tomonlama savdo va investitsiyalarni oshirish im-

koniyyatlarini muhokama qilish platformasidir.

Ikki davlat o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi so‘nggi 5 yilda ikki barobardan ziyod oshib, joriy yilning 10 oyi yakuni bo‘yicha 315 million dollarni tashkil etdi. O‘zbekistonda Buyuk Britaniya kapitali ishtirokidagi 273 korxonada faoliyat yuritmoqda.

Bu yil London shahrida jonli formatda bo‘lib o‘tgan tadbirda yirik korxonalarining IPO rejallari, davlat-xususiy sheriklik va infratuzilma loyihalari, yevrobonlar bo‘yicha xorijlik ekspertlar bilan jonli muhokamalar o‘tkazildi. Shuningdek, ta‘lim sohasidagi hamkorlikni mustahkamlash, transmilliy ta‘lim (TNE) sohasidagi hamkorlik imkoniyati va strategiyalarining o‘zaro o‘shish po-



tensiallaridan samarali foydalanish masalalarida ma‘ruza qilindi.

Buyuk Britaniya tomoni O‘zbekistondagi oliy o‘quv yurtlarida boshqaruv modelini takomillashtirish va ta‘lim sifati yanada oshirishda ko‘mak berishga tayyorligini bildirdi. Shu maqsadda O‘zbekiston Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan hamkorlikda Buyuk Britaniyadagi ta‘lim tashkilotlari ekspertlarini jalb qilgan holda universitetlarda ayni shu yo‘nalishga qaratilgan ikki alohida loyiha amalga oshirildi.

O‘zbekiston tomonining ikki davlat universitetlari forumini o‘tkazish amaliyotini davom ettirish tashabbusi ham qo‘llab-quvvatlandi. Keyingi forumni 2024-yilda Toshkentdagi Xalqaro Vestminster universitetida o‘tkazishga kelishib olindi.

Yig‘ilishda o‘zaro savdoning bugungi holati, shuningdek, fuqarolik bozori Britaniya biznesi uchun taqdim etayotgan imkoniyatlar, ikki mamlakat o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish istiqbollari haqida ham so‘z yuritildi. O‘zbekiston moliya bozori va Buyuk Britaniyaning moliyaviy xizmatlaridagi ilg‘or yutuqlar bo‘yicha tajriba almashish mumkin bo‘lgan hamkorlik sohalari, o‘zaro o‘shish imkoniyatlari va foydali xalqaro moliyaviy strategiyalar haqidagi savollarga javob berildi.

Britaniya vakillariga aeroportlar, temir yo‘llar va pulli yo‘llar bo‘yicha infratuzilma loyihalarni ishlab chiqish yuzasidan ma‘lumot taqdim etildi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston transport sohasida ko‘plab muhim loyihalar ro‘yobga chiqarildi. 2030-yilgacha ham transport sohasida strategik jihatdan muhim loyihalar amalga oshirilishi belgilangan. Toshkent — Samarqand va Toshkent — Andijon pulli avtomobil yo‘lini qurish,

NUQTAYI NAZAR



QONUN BILAN MUSTAHKAMLANGAN hamjihatlik

O'zbekiston — umumiy uyimiz. Ana shu oddiy, lekin g'oyat samimiy jumla haqida hech o'ylab ko'rganmiz? To'g'ri, biz, o'zbeklar uchun shu yurt aziz va mo'tabar, kindik qonimiz tomgan Vatanni har birimiz ardoqlab, qadrlaymiz. Dunyoning qay burchiga bormaylik, bir zumda mana shu bag'rikeng diyorni, uning mehmondo'st, tanti va mard xalqini qo'rsaymiz...

O'zbekiston ayni paytda o'zga millat vakillari bo'lgan millionlab yurtdoshlarimiz uchun ham jonajon Vatandır. Asrlar davomida shunday bo'lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo'ladi.

— Azaldan O'zbekistonda turli millat vakillari istiqomat qilib keladi, — deydi Madaniyat vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlari va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi mas'ul xodimi G'ayratulla Shukurov. — Hech bir millat vakiliga yovqarash bo'lmagan. Ikkinchi jahon urushi davri eslaylik. Temirchi Shohmad Shohmahmudov beomon urush ketayotgan hududlardan yurtimizga ko'chirilgan turli millat farzandlarini bag'riga olgan, oq yuvib, oq taragan, voyaga yetkazgan. Taqdir taqozosi bilan Vatanimizga kelib qolgan yoki shu yerda tug'ilgan o'zga millat vakillarini o'zbek hamisha siylagan, uying to'ridan joy bergan. Bugungi kunda 36,4 milliondan ziyod aholisi bo'lgan hur va obod o'lkamizda 130 dan ortiq millat va elat, 16 diniy konfessiya vakillari istiqomat qiladi. Ular uchun ta'lim qoraqalpoq, rus, tojik, qozoq, qirg'iz va turkman tillarida olib boriladigan maktablar mavjud. Eng muhimi, mazkur maktablar uchun darslik va qo'llanmalar o'zimizda tayyorlanib, chop etilyapti. Bunday g'amxo'rlik dunyoga ibrat bo'lishga arziydi.

Millatlararo totuvlikni, etnik birlikni ta'minlash g'oyasi yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tili, urf-odat va an'analari hurmat qilinishini ta'minlashi, ularning rivoji uchun davlat tomonidan sharoit yaratilishi alohida ko'rsatib o'tilgan. 18-moddada esa mamlakatimizning barcha fuqarolari bir xil huquq va erkinliklarga egaligi, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqaidan qat'i nazar, qonun oldida teng ekanini belgilab qo'yilgan. Qo'mitamiz ana shu maqsad-muddao yo'lida faoliyat yuritib kelmoqda.

Turkman madaniy markazi Toshkent shahrining Yakkasaroy tumanida joylashgan. Poytaxtimizda va turli viloyatlarda istiqomat qiluvchi ushbu millatga mansub yurtdoshlarimiz bu markazga tez-tez tashrif buyuradi. Bayram tadbirlari, uchrashuvlar ko'p, barchasi ko'tarinki kayfiyatda o'tkaziladi.

— Mamlakatimizda yashayotgan har bir millatning etnik o'ziga xosligi, tili, urf-odati, an'analari saqlashda milliy madaniy markazlar muhim rol o'ynaydi, — deydi markaz raisi Gulzona Avezturdiyeva. —



O'zbekistonda 202 mingdan ortiq turkman yashaydi. Ularning o'z urf-odati, milliy qadriyatlarini ardoqlashi, rivojlantirishi uchun hech qanday monelik yo'q. Markazimiz va uning bo'linmalarida Navro'z, Mustaqqillik, Konstitutsiya kuni kabi umumxalq bayramlari shod-u xurramlik bilan nishonlanadi. O'zbek va turkman azaldan bir-birini qadrlagan, qo'shni va qondosh bo'lgan. O'sha an'analar bugun ham bardavom. Farzandlarimiz 44 ta turkman maktabida ta'lim olmoqda. Mustaqqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan turkman millatiga mansub yuzlab yurtdoshlarimiz davlat mukofotlari bilan taqdirlandi. 2021-yilda men ham "Do'stlik" ordeniga sazovor bo'ldim. Bu O'zbekiston hukumatining o'z qardoshlariga ko'rsatgan chukur ehtiromi ramzidir.

Toshkent shahrida ko'rkam "Ashxobod" sayilgohining ochilgani, poytaxtimizning markaziy ko'chalaridan birga turkman xalqining buyuk shoiri va mutafakkiri Maxtumquli nomi berilgani, Xorazmda "Ulli Hovli" O'zbekiston — Turkmaniston turizm majmuasi tashkil etilgani ikki birodar xalq o'rtasidagi do'stlik rishtalari tobora mustahkamlanib borayotganining yorqin dalilidir.

...Iqboloy chegaradan bag'ri xun bo'lib qaytdi. Bu ne ko'rgilik, padari buzruvori bandalikni bajo etsa-yu, uni so'nggi manzilga kuzatishga borolmasa? Chegara postidagi xodimlar unga qo'lidagi pasport

bilan O'sh viloyatiga umuman o'tolmasligini, bunga qat'iyl cheklov qo'yilganini aytganida, ko'zlaridan yosh sizib chiqdi. Axir qani insoniylik, shu ham adolatdanni?

1991-yilda hozirgi O'zbekiston Milliy universitetining kimyo fakultetini bitirgan Iqboloy Qo'rg'ontepaga kelin bo'lib tushaman, deb o'ylamagandi. Dastlabki yillarda u O'shga borib-kelib yursa-da, keyinchalik O'zbekiston fuqaroligi bo'l-

magan shaxs sifatida o'z yurtiga borish huquqidan mahrum etildi. Cheklovlar tufayli ular bilan so'nggi bor vidolasha olmasdi. Bu uning qalbidagi achchiq armon bo'lib qoldi...

O'sha yillarni eslasam, yuragim titrab ketadi, — deydi ayni paytda Andijon viloyati Qo'rg'ontepa tumanidagi 27-umumta'lim maktabi kimyo fani o'qituvchisi Iqboloy Tilovoldiyeva. — O'sh viloyatining Qorasuv shaharchasida tug'ilgan o'zbek qiziman. Har bir inson tug'ilib o'sgan yurtiga talpinadi. Ammo qiz bola palaxmon toshi. Taqdir ekan, Qorasuvdan Qo'rg'ontepaga kelin bo'lib tushdim. Pasportim Qirg'izistonni keyinchalik menga tuman ichki ishlar bo'limi tomonidan pasport vazifasini o'taydigan hujjat berildi. Ammo bu hujjat menga tug'ilib o'sgan qadrdon yurtimga borish, ota-onam, jigarlarim bilan diydorlashib qaytish huquqini bermasdi. Yaqinlarimni yillar mobaynida ko'rolmaganman. Xayriyatki, 2019-yilda O'zbekiston fuqaroligini oldim, endi shu yurt fuqarosiman. Shunday quvonchga yetkazgani uchun Allohga behisob shukr. Hozir chegaralarimiz ochiq, xohlasak, dunyoning har qanday davlatiga chiqamiz, xohlasak, o'zga diyorda yashovchi qarindosh-urug'larimizni yo'qlaymiz. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yaratib berilayotgan bunday sharoit meningdek sarson bo'lgan minglab insonlarning muammosiga chek qo'ydi.

Muallima yaqin o'tmishini eslab afsus bilan yig'laydi, balki yuragiga muhrlangan armon endi boshqacha hissiyotga aylangan, balki qismatdoshlariga yengillik bo'lgani uchundir... Nima bo'lishidan qat'i nazar, bu yurtda inson qadrlanib, uning manfaatlarini himoya qilinyapti. 2016-yilga qadar uzoq yillar davomida Iqboloy Tilovoldiyeva singari chigal taqdir egalari O'zbekiston fuqaroligini olishi juda qiyin kechgan. Ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda 1992-yildan 2007-yilga qadar 480 kishi fuqarolik olgan, xolos. 2007-yildan 2016-yilgacha birorta shaxs O'zbekiston fuqaroligini olmagan. Hozir esa bunday imkoniyatni qo'lga kiritgan shaxslar 70 mingdan oshib ketdi. Bu yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan insonparvarlik siyosatiga yaqqol misol emasmi?

Pop Namangan viloyatining tog'li tumani. Hududdagi ko'plab qishloq va mahallalarda o'zbeklar bilan birga tojik va qirg'iz millatiga mansub yurtdoshlarimiz ham o'zaro do'st, ahil-inoq bo'lib yashab kelmoqda. Tuman markazidan 47 kilometr uzoqdagi Chodak qishlog'ining tabiati o'zgacha. Aholi asosan, bog'dorchilik bilan shug'ullanadi va ko'p qismini tojiklar tashkil qiladi. Qishloqdagi 50-umumta'lim maktabida ta'lim olayotgan tojik o'g'il-qizlari esa o'z tili, madaniyati va urf-odatlarini egallab, mustaqil hayotga tayyorlanmoqda.

— Tojik millatiga mansub otabobolarimiz, momolarimiz uchun Chodak aziz va mo'tabar maskan bo'lgan, — deydi 50-umumta'lim maktabi direktori Po'latjon A'zamov. — Qo'shni qishloq va mahallalarda istiqomat qiluvchi o'zbeklar bilan juda yaqinmiz, qiz berib, qiz olamiz, to'y-ma'rakamiz bir. Tojik va o'zbekning urf-odatlari, turmush tarzi, fe'l-atvori deyarli bir xil. Maktabimizda ta'lim olayotgan tojik bolalar o'z tili va urf-odatlarini mukammal egallab ulg'aymoqda. Ular o'zbek tengqurlari bilan ahil-inoq, hech qachon o'rtalarida ziddiyat bo'lgan emas. "Tashabbusli budjet" loyihasida g'olib chiqqanimiz evaziga maktab qiyofasi 2022-yilda butkul o'zgardi. Parta, stol-stullar yangilandi. Har bir xonaga kuzatuv kamerasi o'rnatildi. 5 dona aqlli doska o'quvchilar xizmatida. Joriy o'quv yilida 47 nafar o'quvchimiz maktabni tamomlaydi va mustaqil hayotga qadam qo'yadi. Ularning kelajakka ishonchi mustahkam. Chunki ular inson qadri ulug'lanadigan, barcha uchun teng sharoit va imkoniyatlar yaratilgan O'zbekiston farzandlari ekanini juda yaxshi biladi va bundan faxrlanadi.

Bu yil Sirdaryo viloyati tashkil etilganining 60 yilligi nishonlandi. Shimoliy qismidan Qozog'iston, janub tarafdin Tojikiston bilan chegaradosh ushbu viloyatni tom ma'noda turli millat vakillari istiqomat qiladigan hudud deiysh mumkin. Qaysi tumaniga bormang, rus, qozoq, tojik, ko'rays, tatar, qirg'iz va boshqa millat vakillari ahillikda yashayotganiga guvoh bo'lasiz. Guliston davlat universitetida uzoq yillar mehnat qilgan tabarruk yoshdagi ziyoli Absalom Jonibekov ana shunday yurtdoshlarimizdan biri. U Yangi hayot mahallasida yashaydi.

— O'zbekiston men kabi qirg'iz millati vakillari uchun ham jonajon Vatandır, — deydi Absalom Jonibekov. — Et bilan timoqni ajratib bo'lmaganidek, qirg'iz va o'zbekni ham ayro tasavvur qilish mumkin emas. Otabobolarimiz Zomin tumanining Suvlisoy qishlog'ida o'troq bo'lib yashagan, boshqacha aytganda, biz uchun O'zbekiston — Vatandır, usiz taqdirimizni ham, tariximizni ham tasavvur qila olmaymiz. Men ana shu qishloqda tug'ildim, o'sdim, ona tilim bilan birga o'zbekchani ham mukammal bilaman. Uzoq yillar Guliston davlat universitetining biologiya kafedrasida ishlab, talaba-yoshlarga shu fandan saboq berdim. Universitetda ishlab turib, fan bilan shug'ullandim va biologiya fanlari nomzodi, dotsentlik ilmiy darajalariga erishdim. 2007-yilda "Do'stlik" ordeni bilan mukofotlandim. Bir olimni ardoqlash, qadrlash shunchalik bo'lar! Taqdirimdan, umr yo'lmdan ming bora roziman! O'zbekistonning ko'p millatli xalqiga ta'zim qilaman. Dunyoda qiyosi yo'q bag'rikeng dunyoning Konstitutsiyasi qabul qilingan kun — ulug'vor bayram bilan barcha yurtdoshlarimizni tabriklayman.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist
Hulkar TO'YMANOVA tayyorladi.

Davlat o'z faoliyatini inson farovonligini va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida amalga oshiradi.

(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-moddasi)



MA'NAVYI YANGILANISHNING YUKSAK NAMUNASI

Bugungi kunda Konstitutsiyamiz mamlakatimizda suveren demokratik davlat barpo etish, inson manfaatlarini, huquq va erkinliklarini ta'minlash, iqtisodiyotimiz rivoji va turmushimiz farovonligini yuksaltirishning asosiy huquqiy kafolati bo'lib xizmat qilmoqda.

Zero, Bosh qonunimizning barcha tamoyillari, avvalo, inson va fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan bo'lib, davlatning majburiyatini ta'minlashda aks etadi.

Ajdodlarimiz har qanday sharoitda ham o'zligidan, aslyatidan uzoqlashmagan holda ilmu fanga, ma'rifatga, ma'naviy axloq mezonlarida dunyoga ibrat bo'la olgudek maktab yaratga olgan. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning har bir maddasi ana shunday buyuk o'zlik, xalqimiz irodasi, ruhiyati, ijtimoiy ong va madaniyatini aks ettirishi bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Unda davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini

Yurtimizda shakllanayotgan yangi ma'naviy makonning poydevori ijtimoiylik, ma'naviy yetuklik, axloqiy poklik va insonning vijdon amri bilan yashash asosida quriladi. Darhaqiqat, shunday. Zamonaviy muhitda fuqarolarimiz o'z taqdiriga daxldorlik, ruhiy birdamlik, umummilliy manfaatlar borasida mardlik namunasini ko'rsata olishga tayyor bo'ladi.

Ta'lim sifatini oshirish yo'lidagi islohotlarning tobora jadal-lashuvi, yaratilgan imkoniyatlar ko'lamini kengaytib borayotganiga yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning hayotbaxsh kuchi amalda bo'y ko'rsatayotganidan darak beradi. Zero, mamlakat qudratini namoyon qiluvchi, taraqqiyotini belgilov-



ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshirishi belgilab qo'yilgan. Darhaqiqat, adolat va haqiqat bosh g'oyasi bo'lgan, inson sha'ni va qadr-qimmatini ulug'lagan, tarixiy madaniy meros va qadriyatlarining huquqiy kafolatini ta'minlagan Konstitutsiyamiz asosida ma'naviyat, insonparvarlik g'oyalari mujassam.

Yangi O'zbekistonda xalqni rozi qilish, inson qadriini ulug'lash, ochiq demokratik davlat barpo etish va davlat qurilishida ustuvor bo'lgan "inson — jamiyat — davlat" tamoyili konstitutsiyaviy islohotlarning bosh mezon bo'ldi.

Bosh qonunimizning g'oya va normalarida xalqimizning ko'p asrlik tajriba va ma'naviy qadriyatlarini, boy tarixiy-huquqiy merosi aks ettirilgani uning hayotiylik kafolatidir.

chi kuch ilm-fan va tarbiyadir. Yoshlarning ta'lim olishi, ijtimoiy va tibbiy himoyasi, uy-joyli bo'lishi, bandligi uchun sharoitlar yaratish davlatning konstitutsiyaviy majburiyatli sifatida belgilangan, davlat shu orqali o'z zimmasiga muhim majburiyatlarni olgani nafaqat yoshlar manfaati, balki butun jamiyatimiz va mamlakatimiz kelajagi, taqdiri uchun muhimdir.

Konstitutsiyamiz inson, insonparvarlik ruhiga yo'g'rilgan har bir fuqaro qalbiga ulug' bir taskin bag'ishlaydi. Shuning o'ziyoq u ma'naviy yangilanishning yuksak namunasini ekaniga yaqqol dalil bo'la oladi!

Mahfuza YULDASHEVA,
Toshkent moliya instituti dotsenti,
siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori



"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul. Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-1246.
43301 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Bashorat Yunusova
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'ZA yakuni — 23:10 Topshirildi — 00:20